

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA AHOLINING TIBBIY MADANIYATINI OSHIRISH, SIFATLI XIZMAT KO‘RSATISH ORQALI ODAMLARNI ROZI QILISHGA E‘TIBOR QARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 7-may kuni tibbiyotning birlamchi bo‘g‘ini va ixtisoslashgan muassasalarda xizmatlar sifatini oshirish, dori iste‘molini tartibga solish hamda tibbiy ta‘limni takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

So‘nggi 7 yilda sog‘liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag‘ 6 karra oshirildi. Hududlardagi shifoxonalar moddiy-texnik jihatdan yangilandi. Ilgari faqat poytaxtda bajarilgan 400 dan ortiq yuqori texnologik amaliyotni viloyat va tumanlarda o‘tkazishga erishildi. Mahalladagi birlamchi bo‘g‘in bilan ixtisoslashgan xizmatlarni bog‘laydigan tizim yo‘lga qo‘yildi.

Yurtimizda har o‘n ming aholiga 29 nafar shifokor to‘g‘ri keladi. Bu katta AQSH, Buyuk Britaniya, Finlyandiya va Kanadadagidan esa ko‘proq. Lekin bizda ish samaradorligi, davolash sifati yaxshi emas.

Masalan, mahallada birlamchi bo‘g‘in to‘g‘ri ishlamagani sababli tumanlarda kasallanish va ularning og‘ir asoratlari kamaymayapti. Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar mamlakatimiz iqtisodiyotiga har yili 1 milliard dollar atrofida zarar keltiryapti.

Tez tibbiy yordamdagi jami chaqiruvlarning to‘rtidan biri surunkali kasalligi bor bemorlarga to‘g‘ri kelyapti. Ba‘zi joylarda tez yordam xuddi poliklinikadek bo‘lib qolgan. Viloyat va tuman shifoxonalarida xodimlar soni, o‘rinlar, mablag‘lar to‘g‘ri taqsimlanmagan.

Tibbiy sug‘urta tizimini joriy qilish yildan-yilga surilib kelyapti. Navbat va xizmatlarni raqamlashtirish ham to‘liq ishga tushirilgani yo‘q.

Bu ishlarda sustkashlikka yo‘l qo‘ygani uchun sog‘liqni saqlash vazirining ikki o‘rinbosari vazifasidan ozod qilindi, yana biriga ogohlantirish berildi.

Yig‘ilishda sohaning birlamchi bo‘g‘inini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish, tibbiyot xodimlarining bilimini va davolash sifatini oshirish masalalari muhokama qilindi. Aholi qamrovi, kasalliklar tahlili va murojaatlar turidan kelib chiqib, yangicha ish tartibi belgilandi.

Avvalo, birlamchi bo‘g‘in isloh qilinib, tibbiyot brigadasi hamda unga birlashtirilgan aholi o‘rtasida ikki tomonlama shartnoma tuziladi. Endi aholi oilaviy shifokorni erkin tanlaydi, bu jarayonga xususiy shifokorlar ham jalb etiladi.

Tibbiy yordamning kafolatlangan paketi tasdiqlanadi hamda paket doirasida tibbiy xizmat va dori vositalari to‘liq byudjetdan qoplanadi.

Birlamchi bo‘g‘inda barcha shifokor va hamshiralar faqat to‘liq stavkada ishlaydi. Poliklinikada akusher-ginekologlar soni 2 barobar ko‘paytiriladi. Har 3 ming nafar bola uchun bittadan pediatr shifokor tanlanadi.

Tumanlardagi shifokorlik punktlari va oilaviy poliklinikalar faoliyati qamrov jihatidan maqbullashtiriladi. Markaziy poliklinika esa tuman shifoxonasining maslahat-dagnostika bo‘limiga aylantiriladi. Barcha tor soha mutaxassislari shu yerda faoliyat yuritadi.

Bu poliklinikalarda oilaviy shifokorning bazaviy oylik maoshi 500 dollar, hamshirani 300 dollar ekvivalenti miqdorida bo‘ladi. Ular malaka sertifikatini olish, yana shuncha ustama to‘lanadi. Agar ular mahallada yurib, surunkali bemorlarni kasallik bilan yashash va uni boshqarishga o‘rgatsa, onkologiya, diabet, insult, infarkt kabi xastaliklarni erta aniqlab, og‘ir asoratlarning oldini olish, maoshi yanada oshadi. Ya‘ni oilaviy shifokorlar 1,5 ming dollar, hamshiralar esa 600-800 dollar ekvivalentida oylik oladigan tizim yaratiladi.

Mazkur tizim bu yil 15 ta tuman va shaharda, kelgusi yildan Samarqand viloyatining barcha hududlarida sinovdan o‘tkaziladi.

Shu bilan birga, oilaviy shifokor va hamshiralarning mas‘uliyati ham oshiriladi. Mahallada infarkt, insult, onalar va bolalarning erta o‘limi, surunkali kasallik tufayli orttirilgan nogironlik bo‘lsa, favqulodda holat hisoblanadi.

Nogironlikni belgilashda shifokorlik-maslahat komissiyalari degan korruptsiya tizimidan to‘liq voz kechiladi. Bu oilaviy shifokor rasmiylashtirgan hujjat asosida tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Soha mutasaddilari va viloyat hokimlariga “Tibbiyotda 90 kunlik o‘zgarishlar” dasturi asosida shifo maskanlarida kutish joylari hamda yo‘laklarni tartibga keltirish, tozalik va madaniyatni oshirish topshirig‘i berildi. Ta‘lim va barcha ijtimoiy muassasalarda “Toza qo‘llar” dasturi tatbiq etilib, sanitariya sharoiti yaxshilanishi aytiladi.

Yig‘ilishda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar masalasi ham tahlil qilindi.

Respublika tibbiyot markazlarida byudjet hisobidan faqat yuqori texnologiyali murakkab amaliyotlar o‘tkazilishi belgilandi.

Elektron yo‘llanma berish va taqsimlash tizimi ham tubdan o‘zgaradi. Unga kiritilgan kasalliklar ro‘yxati va yagona bazaviy narxi tasdiqlanadi.

Bemoraga respublika darajasida davolanish uchun berilgan yo‘llanma yagona elektron maydonchaga joylashtirilib, uni barcha davlat va xususiy klinikalar ko‘rib turadi. Ularning takliflari asosida bemor o‘ziga eng ma‘qul shifoxonani tanlaydi.

Eng og‘irqli muammo — bolalar onkologematologiyasi. Afsuski, yurtimizda bunday kasalliklarning 75 foizi so‘nggi bosqichlarda aniqlanyapti. Shu bois, xuddi onkologiyada bo‘lgani kabi, bolalar saratoniga qarshi kurashish bo‘yicha ham besh yillik dastur ishlab chiqiladi. Bunga kamida 110 million dollar yo‘natiladi.

Dori iste‘molini tartibga solish juda dolzarb masala. Rivojlangan davlatlar dalillarga asoslangan tibbiyotga tayanib, keng miqyosda o‘tkazilgan klinik tadqiqotlar orqali samaradorligi va xavfsizligi aniq dorilardan

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN ROSSIYAGA BORADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 8-9-may kunlari amaliy tashrif bilan Moskva shahrida bo‘ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, davlatimiz rahbari Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaning 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etadi hamda qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazadi.

O‘za

Fuqaro aviatsiyasi YAQINDA ANDIJON, KEYIN XORAZM... MAMLAKATIMIZ AEROPORTLARI YANGILANAYOTGANI HAQIDA MULOHAZALAR



Mamlakat taraqqiyoti va el-yurt farovonligi uchun xizmat qiladigan har qanday soha, har bir kasb egalari e’tirof va hurmat, havas hamda ulug‘lanishga munosibdir. Xususan, milliy iqtisodiyot rivojini transportsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Transport infratuzilmasi sifati uning jahon miqyosidagi raqobatbardoshligi darajasini, sifatlilik xizmat ko‘rsatish ko‘lami kengayishi esa jamiyatning qanchalik rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi. Transport tarmoqlari orasida fuqaro aviatsiyasining alohida o‘rni bor.

Mazkur soha savdo-sotiq, turizm, biznes, ilmiy tadqiqot yuritish kabi yo‘nalishlarni jadal rivojlantirishga ham katta yordam ko‘rsatadigan ustuvor tarmoqlardan biri sanaladi. Tartibli, oqilona yo‘lga qo‘yilgan havo

Davomi 4-betda

Islohot odimlari MAHALLA BANKIRI

HAR BIR OILADAGI G‘OYA VA TASHABBUSLARNI QO‘LLAB-QUVVATLOVCHI INSTITUTGA AYLANMOQDA

Mahalla bankiri. Bu atama kundalik hayotimizga kirib kelganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Ammo yangi tizim aholi muammolarini o‘rganib, hal qilish, bandligini ta‘minlash, farovonligini oshirish, g‘oya va tashabbuslarni yuzaga chiqarishda qo‘l kelmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan “Mahalla bankiri” loyihasi hududlarda iqtisodiy faollikni oshirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Endi har bir mahallaning imkoniyati chuqur o‘rganilib, qaysi biznes qayerda rivojlana olishi oydinlashdi. Mahalla bankiri va yordamchisi

fuqarolar bilan birma-bir gaplashib, ularning loyihasini g‘oyaga, biznes rejaga aylantiruvchi, kerak bo‘lsa, yelkama-yelka turib, amalga oshiruvchi mas‘ul vakil sifatida shakllandi.

Davomi 2-betda

“BIRLASHISH NUQTASI” OCHIQ VA SHAFFOF AXBOROT JAMIYATI SARI QADAMLAR



2

2025-yil — Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili YANGI ENERGETIKA TARMOQLARI DAVLAT IQTISODIYOTINING USTUNI BO‘LADI



Energetika masalasi mamlakat rivojlanishida strategik ahamiyatga ega yo‘nalishdir. Global chaqirig‘lar, xususan, iqlim o‘zgarishi va iqtisodiy beqarorlik sharoitida O‘zbekiston o‘z resurslarini faol rivojlantirishi, innovatsiyalar jalb etishi va barqaror kelajakka sarmoya kiritishni ta‘minlashi lozim.

O‘zbekistonning 2030-yilgacha va undan keyingi davr uchun energetika siyosatining asosiy maqsadi iqtisodiy o‘rni uchun barqaror energiya ta‘minotiga ega bo‘lish va aholining yashash farovonligini oshirishdan iborat. Bunga sohada mavjud ishlab chiqarish hamda ilmiy-texnik salohiyatdan samarali va unumli foydalanish orqali erishiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning barqaror o‘rni kuzatilmoqda. Yaqin kelajakda YIMning yillik 5-6 foiz atrofida o‘rni tendensiyasi saqlanib qolishi kutilyapti. Bu yangi yirik ishlab chiqarish quvvatlari yaratish, kichik va o‘rta biznes hamda yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, transport infratuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari bilan bog‘liq. Bundan tashqari, jarayonlar ishlab chiqarish sohasida energiya iste‘molining mos ravishda o‘rni talab qiladi.

Shu bilan birga, aholi soni va daromadlari barqaror o‘rni borishi natijasida maishiy sektorda ham energiyaga ehtiyoj oshib boradi.

Ayni paytda O‘zbekistonda elektr energiyasining asosiy qismi tabiiy gazda ishlovchi issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqarilmoqda. Bu esa uglevdorod resurslariga bog‘liqlikka olib kelyapti. Ammo mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va atom energetikasi sohasida katta salohiyat mavjud. Ushbu yo‘nalishlardagi loyihalar energetika balansini diversifikatsiya qilish hamda

energetik xavfsizlikni ta‘minlash imkonini beradi.

Uzoq istiqbolda qazilma boyliklardan foydalanish insoniyat, sayyora va global iqtisodiyot uchun boshi berk ko‘cha hisoblanadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, shu bilan birga, atom energetikasiga tez va samarali o‘rni energetik xavfsizlikni ta‘minlash, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining energiya resurslariga talabini qondirishning yagona yo‘lidir.

Jahon energetikasini tahlil qiluvchi mutaxassislar “energetik o‘rni” atamasini to‘rtta asosiy trend bilan bog‘laydi. Bular

nomarkazlashtirish — quyosh va shamol energiyasiga asoslangan, moslashuvchan energetika; intellektuallashtirish — o‘rni o‘zini tiklovchi, avtomatlashtirilgan energiya tizimlari; raqamlashtirish — energetika, avtomatlashtirish va iqtisodiyotning o‘zaro aloqadorligi; dekarbonizatsiyalar — issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish.

Ushbu trendlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir yo‘nalishdagi o‘zgarishlar boshqalariga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Davomi 3-betda



2025-yil 8-may, 93-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Islahot odimlari

MAHALLA BANKIRI

HAR BIR OILADAGI G'OYA VA TASHABBUSLARNI
QO'LLAB-QUVVATLOVCHI INSTITUTGA AYLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Bag'dod tumanidagi “Paxtaobod”, “Samandarak”, “Saxovat” va “Maylaboy” mahalla fuqarolar yig'inlarida mahalla bankiri sifatida ish boshlagan Murodullo Ergashev bilimi va tashkilotchilik qobiliyati bilan tez til topishdi, o'zaro hamjihat bo'lib ishlay boshladi. Qisqa muddatda ularning yaqin maslakdoshi, moliyaviy ko'makchisiga aylandi.

Mahalla bankiri ishini hududlarini o'rganib, belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha kambag'al oilalar, ishsizlar ro'yxatini shakllantirishdan boshladi. Aholi bilan uchrashuvlar o'tkazib, odamlarni tadbirkorlikka jalb qilish, g'oya va tashabbuslarni biznes loyihaga aylantirish, mahsulot hamda xizmatlariga bozor topishga ko'maklashmoqda. Tashabbuskor fuqarolar bilan hamkorlikda dastlabki biznes loyihalarni yo'lga qo'yishda har jihatdan ko'maklashib, qo'llab-quvvatlayapti.

Endi odamlar biror loyihani amalga oshirish uchun kredit olmoqchi bo'lsa, avvalgidek bank muassasalariga borishiga zarurat yo'q. Mahalla bankiriga murojaat qilishning o'zi yetarli. Loyiha haqida o'ylamagan taqdirda ham mahalla bankirlari o'zi xonadonlarga kirib borib, taklif va maslahatini beradi. Chunki ular o'ziga birlashtirilgan mahallalardagi har bir xonadon bilan alohida ishlaydi. Bu vazifalar birgina mahalla bankirining zimmasida emas. Unga ko'maklashadigan yordamchi agent ham bor. U mahalladagi har bir xonadonni yaxshi biladigan, aholi orasida bank xizmatlarini ommalashtirish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlar va tadbirkorlik subyektlarini bank xizmatlariga qiziqitirish orqali tadbirkorlik faoliyatini boshlash va kengaytirish bo'yicha mahalla bankiriga yaqindan ko'maklashib kelmoqda. Oilalarga kamida 3 tadan istiqbolli loyiha pakeiti taqdim etilyapti.

Har bir mahallada 10 tadan jami 40 ta mikroloiyhani qo'llab-quvvatlash uchun 1,5 milliard so'mlik imtiyozli kredit ajratilishi ko'zda tutilgan, — deydi mahalla bankiri. — Shu kunga qadar Sayxunobod tajribasi asosida 40 mijozga 800 million so'mlik mikroloiyahalar va loyiha paketlari moliyalashtirilib, 80 kishining bandligi ta'minlandi. Uychi tajribasi bo'yicha

90 tadbirkorni qamrab olish orqali 180 ta doimiy ish o'rni ochish rejalashtirilgan. Muhimi, bu yo'nalishda ishlash istagidagi tashabbuskorlar ko'p. Ularga ozgina e'tibor, rag'bat bo'lsa, bas. Joylarda “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida mahsulot yetishtirish yo'nalishidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlayapmiz. Chunki har bir mahallaning o'ziga xos ish uslubi, o'sish nuqtasi bor. Masalan, Samandarak mahallasida tomorqachilik, Paxtaobodda mebel ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlari rivojlangan. Faoliyatimiz davomida bu boradagi ishlar salmog'ini yanada oshirib, tashabbuskorlarga amaliy ko'mak berapmiz.

“Paxtaobod” mahalla fuqarolar yig'inida yashayotgan Otabek Shermatovga “Mahalla loyihasi” dasturi doirasida 50 million so'mlik kredit ajratildi. Buning hisobiga xo'jalikda chorvachilik yo'nalishida tadbirkorlik yo'lga qo'yilib, xonadonning 2 a'zosi ish bilan ta'minlandi.

Mahalla bankirlarining ishi ortiqcha ovoragarchiliklarga barham berdi, — deydi “Maylavoy” mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Rustamjon Azamatov. — Novvoylik qilaman, ammo tadbirkorlik yo'nalishida mustaqil faoliyat yuritish, kredit olish, biznes loyihalar ishlab chiqishda birmuncha qiyinchilik va tushunmovchiliklarga duch kelayotganim uchun bu ishini boshlashga jur'at topa olmayotgandim. Mahalla bankiri bu boradagi ishlarga maslahat berib, kerakli yo'l-yo'riq ko'rsatdi. Novvoylik yo'nalishida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 15,5 million so'mlik imtiyozli kredit olishimga ko'maklashdi. Natijada 2 ta yangi ish o'rni ochildim. Oilam farovonligi uchun qo'shimcha daromad topish imkoniyatiga ega bo'ldim.

“Samandarak” mahalla fuqarolar yig'inida 1030 ta xonadon bor. Aksariyat odamlar tomorqasida loviya yetishtiradi. Bu ish rivojlantirilib, tomorqadan 2-3-marta hosil olish chorasi ko'rildi. Tomorqalardan samarali foydalanish, mahsulot yetishtirishdan sotib olishgacha bo'lgan jarayonning janjir tizimini yaratish maqsadida har bir mahallaga ilg'or tadbirkorlar birlashtirildi. Bu bir xonadonda yiliga 50-60 million so'mgacha daromad olish imkonini beradi. Yetakchi tadbirkor — “Bag'dod sohil” MCHJ xonadonlarga loviya urug'i va kimyoviy vositalar yetkazib berdi.

Shuningdek, mahsulot yetishtirilguncha bo'lgan agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda har jihatdan ko'maklashmoqda.

O'n sotix tomorqamizda birinchi ekin sifatida loviya ekib, hosildan 20-25 million so'mgacha daromad olishni ko'zlab turibmiz, — deydi Asqarali Haydarov. — Bu jarayonda ilg'or tadbirkorlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgani ayni muddad bo'ldi. Ular sarxil loviya urug'i, kerakli kimyoviy vositalar, uskunalar yetkazib beriyapti. Ikkinchi ekin sifatida pomidor ekib, parvarishlash yuzasidan shartnoma tuzganmiz. Bu o'rta hisobda 30-40 million so'm daromad olish imkonini degani. Muhimi, yetishtirilgan mahsulotimizning egasi, bozori bor. Bu — dehqon uchun juda qulay jarayon.

Mahalla bankirlari oilaviy biznes loyihalarni kengaytirish orqali qo'shimcha ish o'rinlari ochishga ham kamarbasta bo'lmoqda. Ilgari kredit olib “o'rta”dan “yaxshi” toifaga o'tgan mijozlar orasida so'rovnomaga o'tkazilib, fuqarolarni kichik biznes, ya'ni yakka tartibdagi tadbirkorlik va oilaviy korxonalar ochish orqali ishbilarmonlikka jalb qilishga alohida e'tibor berilyapti. 159 ta mikroloiyhani shakllantirish tufayli yil yakuniga qadar 318 fuqaroning bandligi ta'minlandi.

Tadbirkor Nodirbek Qodirov rahbarligidagi “Elyorбек” xususiy korxonasiga mahalla bankiri taklifi bilan zamonaviy dastgohlar uchun kredit mablag'i ajratilgach, korxonaning ishlab chiqarish quvvati oshdi. Korxonaga 100 million so'm imtiyozli kredit ajratilib, kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ko'lami kengaytirildi. Mahalla bankiri ko'magi bilan endi bu biznes loyiha boshqa tadbirkorlik subyektlarida ham tatbiq etilmoqda. Bu qanchadan-qancha yangi loyihalar, xaridorigir mahsulotlar, ish o'rinlari va qo'shimcha eksport, degani.

Mahalla bankirlari aholining tom ma'nodagi ko'makchisi, maslakdoshiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Yangi tizim mahallalar iqtisodiy faoliyatini mustahkamlash, aholi manfaat va farovonligini oshirish, hududlar obodligini ta'minlash, tashabbuskorlarni rag'batlantirish, ish tajribalarini ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

NIGOH



yuz.uz_news



yuz



Media forum

“BIRLASHISH NUQTASI” OCHIQ VA SHAFFOF AXBOROT JAMIYATI SARI QADAMLAR

O'zbekiston Milliy media birlashmasi tashabbusi bilan “Birlashish nuqtasi” IV xalqaro media forumi tashkil etildi. “So'z va matbuot erkinligi — Uchinchi Renessans poydevori” mavzusida o'tkazilgan forumda barqaror rivojlanishni ta'minlashda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyatiga doir muhokamalar bo'lib o'tdi. Tadbirda xalqaro va mahalliy mutaxassislar, davlat tuzilmalari, teleradiokompaniyalar, ta'lim sohasi vakillari, yosh innovatorlar, startapchilar va tadbirkorlar ishtirok etdi.



Forumda O'zbekiston Milliy media birlashmasi zamonaviy media muhitini shakllantirishga xayrixohligini namoyon etib, ochiq jurnalistika tamoyillarini ilgari surdi.

O'tkazilgan forum shuni ko'rsatdiki, so'z erkinligi va innovatsiyalar kelajakda mintaqa taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanishi muqarrar. Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan Yangi O'zbekiston islohotlari natijasida yangi tashabbuslar uchun mustahkam poydevor qo'yildi. Bundan tashqari, bugungi kunda jurnalistlar va media ahlining emin-erkin faoliyat olib borishi, o'z fikrini to'laqilgacha bildirish, yurti baralla madh eta olishi davlatimiz rahbari tomonidan 2016-yilda boshlangan ochiqlik va oshkoralik siyosati, so'z

erkinligining qo'llab-quvvatlanishi natijasidir, — deydi O'zbekiston Milliy media birlashmasi boshqaruvi raisi Sherzodxon Qudratxo'ja.

Ishtirokchilar panellarga bo'lingan holda muhokamani davom ettirdi. Xususan, birinchi sessiyada mamlakatimiz media siyosati yetakchi vakillari jamlanib, O'zbekiston so'z erkinligini ta'minlash, ochiq va zamonaviy axborot jamiyatini barpo etish yo'lida izchil odimlayotganini ta'kidladi.

Forumning ikkinchi sessiyasi g'oyalar va ochiq fikrlar maydoni vazifasini o'tadi. Unda ma'lumfiik mediamahsulotlari istiqbolli, yangi avlodning axborot maydonidagi roli, jurnalistlar huquqlari himoyasi, raqamli transformatsiya jarayonidagi muhim tendensiyalar muhokama

qilindi. Media muhitining uzluksiz rivojlanishi va auditoriya ishonchini mustahkamlashda sifat, xolislik va innovatsiyalarning o'rni muhimligi alohida ta'kidlandi.

Tadbir “Mediahakaton: mediakontent va sun'iy intellekt” nomli innovatsion sessiya bilan yakunlandi. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va yangi til algoritmlari ijodiy, samarali va moslashuvchan kontent yaratishga xizmat qilishi qayd etildi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, O'zbekiston bugun nafaqat global tendensiyalarni qabul qilmoqda, balki boy an'analarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirib, o'z taraqqiyot yo'lini shakllantirmoqda. Eng yaxshi loyihalar yuqori baholanib, keyingi bosqichlarda amaliyotga joriy qilish uchun “yo'l xaritasi”ga kiritildi. Forum yakunida ishtirokchilar so'z erkinligi yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, barqaror axborot siyosatini ishlab chiqish va media sohasini raqamli davrga moslashtirish bo'yicha muhim tavsiyalari bilan o'rtoqlashdi.

“Birlashish nuqtasi” shunchaki tadbir emas, balki yangi davr uchun yo'nalish belgilovchi maydon bo'ldi. Bu yerda so'z erkinligi va innovatsiyalar uyg'unlashadi. Mamlakatimizning mintaqadagi yetakchilik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Milliy media birlashmasi erkinlik, shaffoflik va texnologik taraqqiyotga asoslangan zamonaviy, mas'uliyatli va ishonchli media tizimini yaratishga intilmoqda. Forum natijalari esa so'z erkinligini ilgari surish, mediainnovatsiyalarni rivojlantirish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish yo'lida yangi dasturlar poydevoriga aylandi.

O'zbekiston ochiq va shaffof axborot jamiyatini shakllantirish sari qat'iyat bilan harakat qilmoqda. Bu yerda so'z kuchga ega, texnologiyalar kelajak jurnalistikasi uchun yangi uqlar ochadi. Ushbu anjuman yangi hamkorlik, yangi loyiha va tashabbuslarga asos bo'lib xizmat qiladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Korrupsiya ajriqqa o'xshaydi. Ildizini batamom quritmasangiz, poyasini ming marta kesgan bilan yana o'sib chiqaveradi. U tomir otgan joyda boshqa o'simlik o'smaydi. Tomiri shu qadar yashovchanki, uzoq vaqt davom etgan qurg'oqchilikdan bamisoli xasga aylangan ildiz namlik tegishi bilan yana tiklanadi. Shuning uchun dehqonlar ekini baravj unishi, yaxshi hosil olish uchun yerni doim ajriqdan toza tutish, buning uchun tomirini bittalab terib olishga odatlangan. Korrupsiya ham deyarli shunday. Bu illat qayerda mavjud ekan, o'sha yerda ishonchsizlik, yolg'on ildiz otadi, taraqqiyot oyog'iga tushov solinadi. Shu bois, dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri bo'lib turibdi.

Davlatimiz rahbari Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining joriy yil 5-martda o'tkazilgan yig'ilishida yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilingan ishlarga baho berdi.

Yig'ilishda belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashishga jamoatchilik, parlament va fuqarolik jamiyati institutlarini keng safarbar etish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarida “halollik vaktsinasi” tamoyili asosida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida joriy yil 21-aprelda Prezidentimiz ikkita muhim hujjatni imzoladi.

Ularda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish, bunday holatlarni barvaqt aniqlash hamda oldini olishga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Xususan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmon keskin va ta'sirchan huquqiy mexanizmlar nazarda tutilgani bilan ahamiyatlidir.

Har yili hududlar kesimida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, shu jumladan, maishiy korrupsiyaga barham berish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhitini shakllantirish bo'yicha “yo'l xarita”si tasdiqlanadi, ijrosi nazoratga olinadi.

AJRIQ BOSGAN DALADAN HOSIL,

KORRUPSIYA BO'LGAN SOHADAN SAMARA KUTISH FOYDASIZ



2027-yil 1-yanvargacha Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha huquqiy eksperiment joriy etiladi. Unga muvofiq, Sog'liqni saqlash, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi, Suv xo'jaligi vazirliklari, “O'zbekneftgaz” AJ hamda “O'zsvutta”minot” AJning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari rahbari lavozimiga Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari tayinlanadi.

hokimlar ham joylarda ushbu amaliyotni amalga oshiradi.

Farmonda iqtisodiyotda korrupsiyaviy omillarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Unga ko'ra, davlat xaridida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi hamda uning o'rta bozor narxi o'rtaasidagi tafovutning eng ko'p yo'l qo'yiladigan chegarasidan chetga chiqqan holda xaridlarni amalga oshirgan mansabdor shaxslar javobgarlikka tortiladi. 2025-yil 1-iyuldan yirik investitsiya loyihalarida korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlar hamda yirik auktsion shartlarini raqobatbardoshlik ekspertizasidan o'tkazish tartibi yo'lga qo'yiladi.

“Shaffof qurilish” milliy axborot tizimi qamrovini kengaytirilib, bosqichlarga-bosqich xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi loyihalarga joriy qilinadi.

— Farmon bilan prokuratura organlari o'z

faoliyatini amalga oshirishda korrupsiyaviy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bilan bog'liq tahliliy faoliyatga alohida urg'u berishi belgilandi, — deydi Bosh prokuratura boshqarma prokurori Zafarjon Qo'chqorov. — Bunda Bosh prokuratura tarkibida korrupsiyaviy omillarni tahlil etish bo'yicha alohida bo'lim tashkil etiladi. Shuningdek, bu boradagi qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishini nazorat qilish hamda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi holatlarning oldini qonun ijodkorligi bosqichida olish maqsadida prokuratura organlariga me'yoriy-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish vakolatini berish nazarda tutilmoqda.

2025-yil yakuniga qadar xalqaro tender obyektleri bo'yicha subpudratchilarni “Shaffof qurilish” tizimi orqali jalb qilish, qiymati 2 million AQSH dollarigacha bo'lgan, xalqaro moliya tashkilotlari hisobidan

moliyalashtiriladigan mahalliy tenderlarni “Shaffof qurilish” tizimidan o'tkazish hamda xalqaro tenderlar bo'yicha jalb qilingan chet el pudrat tashkilotlari shartnoma qiymatining kamida 60 foizini o'z kuchi bilan bajarishi tartibi joriy etiladi.

2026-yil 1-yanvargacha qadar vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar tomonidan ko'rsatiladigan barcha davlat xizmatlarini tuman (shahar) kesimida aholining o'zi baholaydigan tizim yo'lga qo'yiladi. Bunda aholi tomonidan “qoniqarsiz” deb baholangan davlat xizmatlarini ko'rsatishda vazirlik, idora rahbarlari hamda tuman (shahar) hokimlarining shaxsiy javobgarligi belgilanadi.

Shu bilan birga, byurokratik to'siqlarning oldini olish masqasida alohida platforma joriy etiladi, — deydi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mas'ul xodimi Mironshoh

Rasulov. — Ushbu platformada fuqarolarni eng ko'p qiyinab kelayotgan masalalarning yechim va takliflari berib boriladi. Asosiysi, mamlakatimizning istalgan hududidan mobil ilova orqali bu platformaga kirish imkoniyati yaratiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish uchun yil yakuniga

qadar 21 ta me'yoriy-huquqiy hujjat chiqariladi. Ularning ijrosini ta'minlash uchun vazirlik va idoralar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi belgilandi.

Prezidentimizning “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash borasidagi ustuvor vazifalar belgilangan.

Qarorga muvofiq, davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari o'z faoliyatida bevosita tashkilotning birinchi rahbariga, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida esa kuzatuv kengashiga bo'yusnadi va uning oldida hisobdor bo'ladi.

Bu bo'linmalar korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash, oldini olish va unga imkon beruvchi sabab va sharoitlarni bartaraf etishga mas'uldir, — deydi Adliya vazirligi boshqarma boshlig'i o'rinbosari Dilmurod Rajabov. — Bundan tashqari, davlat xizmatlarini ko'rsatishda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, raqamlashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish borasida takliflar ishlab chiqadi. Eng muhimi, idoraviy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ekspertizadan o'tkazish va yakunlari bo'yicha aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bekor qilish bo'yicha takliflar kiritadi.

Davlat organlari va tashkilotlari hududiy bo'linmalari hamda tarkibiy tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari rahbarlari va xodimlari respublika darajasidagi davlat organlari

va tashkilotlarining birinchi rahbarlari tomonidan tayinlanadi hamda faoliyati muvofiqlashtiriladi.

2027-yil 1-yanvargacha Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha huquqiy eksperiment joriy etiladi. Unga muvofiq, Sog'liqni saqlash, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi, Suv xo'jaligi vazirliklari, “O'zbekneftgaz” AJ hamda “O'zsvutta”minot” AJning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari rahbari lavozimiga Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari tayinlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huquqiy eksperimentning natijalarini tahlil qilish asosida 2027-yil 1-yanvargacha qadar ushbu tizimni boshqa davlat organlari va tashkilotlariga ham tatbiq etish yuzasidan asoslantirilgan takliflar tayyorlaydi.

Mazkur eksperimentda qator yangi tajribalar joriy etiladi, — deydi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bosh inspektori Sardorjon Mamanov. — Xususan, aynan eksperiment davrida yuqorida sanab o'tilgan beshta tashkilotning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmasi xodimlari to'liq tarkibida agentligimiz bo'yusunuviga o'tkaziladi. Ular faoliyatining huquqiy eksperiment davomidagi eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) belgilanadi.

Huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida jamiyatda barqarorlik muhiti mustahkamlanadi va odamlarning roziligi ortadi. Aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi yuksalib, korrupsiyaga qarshi kurashishga daxldorligi oshadi.

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili

YANGI ENERGETIKA TARMOQLARI

DAVLAT IQTISODIYOTINING USTUNI BO‘LADI

Qahramon ALLAYEV,
akademik,
Ikromjon RAHMONOV,
professor

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekistonning yoqilg‘i-energetika kompleksi aynan shu trendlar asosida rivojlanmoqda. Yurtimizning energetika sohasidagi yutuqlari xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholanyapti. Masalan, 2022-yilda Xalqaro energetika agentligi tomonidan e‘lon qilingan hisobotda bunday deyiladi: “2019-yilda boshlangan energetika sektorini keng ko‘lamda isloh qilish jarayoni barqaror sur‘atlarda davom etmoqda. Bu ishlohtlarning ko‘lami boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda juda ambitsiyali bo‘lib, XEA O‘zbekiston hukumatini hozirgacha erishilgan natijalar uchun olqishlaydi”.

Ushbu yuqori baho mamlakat yoqilg‘i-energetika majmuasi iqtisodiyot tarmoqlari va aholini elektr, issiqlik va boshqa turdagi energiya resurslari bilan uzluksiz va ishonchli ta‘minlash sari to‘g‘ri yo‘lda ekanini ko‘rsatadi.

Joriy yilning 3-4-aprel kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo” birinchi sammiti natijalari ham xalqaro hamjamiyat tomonidan O‘zbekistonning “yashil” energetika, raqamli integratsiya, suv va energetika loyihalari sohasidagi yutuqlari yuqori baholanayotganini yaqqol namoyon etdi.

Gaz zaxirasidan oqilona foydalanish zarur

Bugungi kunda mamlakatda neft zaxiralari 81 million tonnani tashkil etadi. Afuski, so‘nggi yillarda uni qazib olish hajmi kamayib bormoqda. Shu bilan birga, ushbu davr mobaynida benzin ishlab chiqarish hajmi 1,11 million tonnadan 1,34 million tonnaga, mazut ishlab chiqarish esa 111,8 ming tonnadan 164,1 ming tonnaga oshgan.

So‘nggi yillarda neft-gaz sohasidagi muhim jihatlardan biri investitsion dasturlarni yangi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga yo‘naltirish bo‘ldi. Natijada bu ishlab chiqarishlar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanib, uglevodorod resurslarini chuqur qayta ishlash imkonini berdi, yangi ish o‘rinlarini yaratishni ta‘minlayapti.

Bugungi kunda O‘zbekistonda tabiiy gazning geologik zaxiralari 5 trillion kub metr dan ziyodni tashkil etadi. Tasdiqlangan zaxiralar hajmi esa 1,1 trillion kub metr dan ortiq. 2024-yilda mamlakatda taxminan 47 milliard kub metr tabiiy gaz qazib olindi. Zaxiralar katta bo‘lishiga qaramay, uzoq muddatli istiqbolga gaz qazib chiqarish hajmi kamayishi mumkin. Bu esa muqobil yechimlarni izlashni taqozo etadi.

Tabiiy gazdan oqilona foydalanish va eskirgan gaz-turbinali uskunalarni modernizatsiyalash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Gaz quvurlarini yangilash, qayta ishlash quvvatlarini yaratish bo‘yicha ishlar olib borilyapti. Eksport hajmi muhim bo‘lishiga qaramay, ustuvorlik tobora ichki bozorga qaratilmoqda.

Ko‘mir sanoati istiqbollari

Geologik tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 5,7 milliard tonna ko‘mir zaxirasi mavjudligi prognoz qilingan bo‘lib, shundan 2 milliard tonnasi o‘rganilgan. Shu bilan birga, 47 milliard tonnadan ortiq slanes zaxiralari bor. Ko‘mir ishlab chiqarish 2023-yilda 6,5, 2024-yilda 8 million tonnani tashkil etgan bo‘lsa, uzoq istiqbolda 20 million tonnaga yetishi kutilmoqda. Bu maqsadga erishish uchun xalqaro standartlarni joriy etish, ko‘mir sifatini oshirish, investitsion loyihalarni jadallashtirish zarur. 2024-yilda energetikada 5 million tonna ko‘mir ishlatilgan. O‘zbekistonda faqat ikki xil — qo‘ng‘ir va toshko‘mir qazib olinadi. Uning 97-99 foizi qo‘ng‘ir ko‘mirdir. 2030-yildan keyin tabiiy gaz qazib chiqarish kamayishi mumkinligi bois, ko‘mir asosiy yoqilg‘i manbaiga aylanishi ehtimoli yuqori.

Keyingi yillarda 15 ta qalin qayta ishlash loyihasi amalga oshiriladi. Ular asosida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish orqali

2030-yilgacha 180 million dollarlik eksportga erishish rejalashtirilmoqda.

Slanes texnologiyalari keng joriy etilishi tufayli AQSH importyordan eksportyorga aylanganini inobatga olsak, bu O‘zbekiston uchun katta istiqbollar eshigini ochadi.

Quyosh, shamol, suv — tunganmas manba

Gidroelektrostansiya — GES ekologik toza, barqaror energiya manbaidir. Prezidentimizning 2023-yil 30-martdagi qarori gidroenergetikani yanada isloh qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 2024-yilda “O‘zbekgidroenergo” AJ GESlari mamlakat umumiy energiya ishlab chiqarishining 12-13 foizini tashkil etdi va umumiy quvvati 2225 MVtga yetdi. 2024-yilda jami 17 MVtli 18 ta mikro GES ishga tushirilgan. Yaqin yillarda mikro GESlar quvvati 27 MVtga yetishi kutilmoqda.

So‘nggi 8 yilda GESlar soni 37 tadan 58 taga yetkazildi, yaqin kelajakda 71 ta bo‘ladi. 2030-yilgacha umumiy quvvatni 3800 MVtga, keyin esa 6000 MVtga yetkazish rejalashtirilgan. Yillik elektr ishlab chiqarish hajmi 7 milliard kVt-soatdan 17 milliard kVt-soatga yetadi.

Quyosh va shamol energiyasi o‘zgaruvchan va ob-havoga bog‘liq bo‘lgani uchun energiyani zaxiralash tizimlari strategik ahamiyatga ega. Buning eng samarali yechimi gidroakkumulyatsion stansiya — GAESlardir. Hozir “O‘zbekgidroenergo” Rossiyaning “Gidroyekt” instituti bilan hamkorlikda yurtimizda 5000 MVtdan ortiq, jumladan, Toshkentda 2300 MVt, Jizzaxda 800 MVt, Qoraqalpog‘istonda 500 MVt, Buxoroda 500 MVt, Xorazmda 350 MVt, Andijonda 250 MVt, Qashqadaryoda 250 MVt quvvatga ega GAESlar qurish imkoniyatlarini o‘rganmoqda.

“2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi hozirgi 12,97 milliard kVt-soatdan 54,4 milliard kVt-soatgacha, 2035-yilgacha esa 64,9 milliard kVt-soatgacha oshiriladi. Agar 2035-yilgacha Yevropaga 15 milliard kVt-soat energiya eksport qilish rejasi amalga oshsa, ishlab chiqarish hajmi 70,69 milliard kVt-soatga yetadi.

2030-yilgacha Xo‘jakent va Yuqori Piskom GAESlari quriladi. Ular jami 1200 MVt quvvatga ega bo‘lib, 2 milliard dollarlik investitsiya talab qiladi.

“Yashil” energetika — kelajak sohasi

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari tarkibiga GES, gidroakkumulyatsion stansiya-lar, quyosh, shamol va biomassaga asoslangan energiya manbalari kiradi. 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi yurtimiz umumiy energetika quvvatlarining kamida 54 foizini tashkil etishi lozim. Bu qo‘shimcha 27 gigavatt “yashil” quvvatlarni ishga tushirish degani. Ushbu choralar “yashil” energetikaga tez o‘tishni ta‘minlaydi, qayta tiklanmaydigan energiya resurslariga qaramlikni kamaytirib, gaz generatsiyasiga tushadigan yuklamani yengillashtiradi. Shu bilan birga, zararli gazlar emissiyasini qisqartirib, energetik xavfsizlikni oshiradi.

So‘nggi yillarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va

amalga oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu ish juda tez amalga oshmaydi, albatta. Ammo “yashil” energiya sohasini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalar strategik maqsadlarga ega va shuning uchun ular so‘zsiz amalga oshiriladi. Bugungi kunda “yashil” rivojlanish O‘zbekistonda umummilliy harakat darajasiga ko‘tarilgan.

Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda quyosh va shamol energiyasi texnik salohiyatining har biri 500 gigavatt dan ortiqni tashkil etadi. Bundan tashqari, biomassa (15-17 GVt) va geotermal energiya (1 GVt-gacha) kabi qayta tiklanuvchi energiya



manbalari turlari ham rivojlantirilishi lozim.

Hozirgi kunda Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar”, Saudiya Arabistonining “ACWA Power” va Fransiyaning “TotalEnergies” kabi kompaniyalari bilan mamlakatning turli hududlarida 50 dan ziyod yirik “yashil” loyiha amalga oshirilmoqda. Ularning umumiy

64,9 milliard kVt-soatgacha oshiriladi. Agar 2035-yilgacha Yevropaga 15 milliard kVt-soat energiya eksport qilish rejasi amalga oshsa, ishlab chiqarish hajmi 70,69 milliard kVt-soatga yetadi.

Vodorod energetikasi

O‘zbekiston “yashil” vodorodni o‘zining energetik o‘tish strategiyasining muhim tarkibiy qism sifatida ko‘rib chiqmoqda. “Yashil” vodorod qayta tiklanuvchi va atom energiyasi manbalari asosida ishlab chiqariladigan vodorod hisoblanadi. Vodorod

elektr energiyasi iste‘molini aniqroq kuzatish va yo‘qotishlarni kamaytirish imkonini beradi. Energiya iste‘molini monitoring qilish, prognozlash va optimallashtirishning intellektual tizimlari ishlab chiqilmoqda.

2022-yilda Energetika vazirligi energotizimni intellektuallashtirish bo‘yicha loyihaning birinchi bosqichini amalga oshirdi — 7,5 million iste‘molchiga ASKUE tizimi orqali elektron hisoblagichlar o‘rnatildi. Bu mamlakat bo‘ylab energiya yo‘qotishlarini 5 foizgacha kamaytirishga imkon berdi.

Samaradorlik nimalarga bog‘liq?

O‘zbekistonda energetika sohasidagi keng qamrovli islohotlardan biri, shubhasiz, energiya samaradorligini oshirishdir. Mamlakatda hozirgi kunda elektr energiyasini uzatish va taqsimlashda katta yo‘qotishlar kuzatilmoqda, iqtisodiyotning energiya sarfi esa jahon standartlariga nisbatan yuqori.

Prognozlariga ko‘ra, 2030-yilgacha O‘zbekiston aholisi soni 41 million kishiga yetib, iqtisodiyot hajmi 2 barobar o‘sadi. Bu energiya resurslariga talabni 1,5 barobar oshiradi. Shular inobatga olinib, so‘nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida energiya sarfini kamaytirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi. O‘zbekistonda 1 kvadrat metr maydon uchun issiqlik energiyasi sarfi 390 kVt-soatni tashkil etib, bu ko‘rsatkich, masalan, Niderlandiyada 95 kVt-soatga teng. Shu bois, 2030-yilgacha iqtisodiyotning energiya sarfini 1,5 barobar kamaytirish bo‘yicha maqsadli dastur qabul qilingan.

Prezidentimizning joriy yil 27-fevraldagi qarorida 2025-yilda energiya resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari belgilangan. Asosiy ko‘rsatkichlar 3,3 milliard kub metr tabiiy gaz va 3,5 milliard kVt-soat elektr energiyasini tejashdir.

Kichik qayta tiklanuvchi energetika obyektlarini rivojlantirishga ham katta e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, umumiy quvvati 100 MVt bo‘lgan 300 ta kichik quyosh elektrostansiyasi qurilishi 45 million kub metr gazni tejash imkonini beradi. Shuningdek, kanallar va daryolar yoqasida 1000 dan ziyod mikro GES qurilishi orqali 175 million kVt energiya ishlab chiqarish mumkin.

Ekologiya

Yurtimizda 2025-yil Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb nomlandi. O‘zbekiston 2018-yilda Parij iqlim kelishuvini ratifikatsiya qilgan. Ekologik muammolar energetika sektori uchun ham jiddiy chaqiriq bo‘lib qolmoqda. Elektr energiyasining asosiy qismi gaz va ko‘mir vositasida ishlab chiqarilgan sababli issiqxona gazlari chiqindilari havo sifati yomonlashishiga olib kelyapti.

Shu bilan birga, an’anaviy energiya manbalari katta miqdorda suv sarflashini talab etadi. Bu esa suv tanqisligi bilan bog‘liq muammolar sharoitida O‘zbekiston uchun juda muhim. Suv tanqisligi kuchayishi aholi soni o‘shishi va oziq-ovqat hamda energiyaga talab ortishi bilan bog‘liq. Shuningdek, O‘zbekistonda muzliklar hajmi kamaymoqda. Jumladan, Pskom daryosi muzliklari 50-60 yilda 24 foiz, Surxondaryoda 40 foiz, Qashqadaryoda esa 70 foiz qisqargan.

O‘zbekiston 2030-yilgacha CO₂ chiqindilarini 35 foizgacha kamaytirishni rejalashtirmoqda. Bu maqsadga erishish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan loyihalar ro‘yobga chiqarilayapti. AES qurilishi uglevodorodlarga qaramlik va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

“

O‘zbekiston

2030-yilgacha CO₂ chiqindilarini 35 foizgacha kamaytirishni rejalashtirmoqda. Bu maqsadga erishish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan loyihalar ro‘yobga chiqarilayapti. AES qurilishi uglevodorodlarga qaramlik va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bozor mexanizmlari joriy etiladi

O‘tkazilayotgan islohotlar va yirik investitsiya loyihalari mamlakat energetika strategiyasida jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 28-sentabrdagi “Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi tashkil etildi. Islohotlarning asosiy jihatlardan biri energetika sohasida bozor mexanizmlariga o‘tish va xususiy sektor rolini kengaytirishdir. 2030-yilga qadar O‘zbekistonning barcha hududlarida elektr va gaz tarmoqlarini xususiy operatorlarga topshirish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston energetika bozorida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, barcha ishtirokchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish va shaffof narx mexanizmini joriy etish maqsad qilingan. Elektr energiyasini yetkazib berishdagi monopoliya tugatiladi va ijtimoiy himoya kafolatlari saqlangan holda bozor mexanizmlari joriy etiladi.

Elektr energiyasi ulgurji bozoriga to‘liq o‘tish 2027-yilga, gaz bozoriga o‘tish esa 2028-yilga rejalashtirilgan. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish, narxni shakllantirishda bozor mexanizmlarini joriy etish, investitsion jozibadorlikni va yoqilg‘i-energetika kompleksi samaradorligini oshirish yo‘nalishlari ustuvor ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo yagona energetizimi

Mamlakatimiz energetika sektori nafaqat milliy iqtisodiyotda, balki mintaqaviy hamkorlikda ham muhim o‘rin tutadi. Mamlakat qo‘shni davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faol rivojlantirmoqda. Bu orqali energetik xavfsizlikni ta‘minlash, infratuzilmani modernizatsiyalash va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish maqsad qilingan.

O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi yirik energiya ishlab chiqaruvchilardan biri sifatida qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash va barqaror mintaqaviy energetika bozorini shakllantirishga intilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakat mintaqaviy energotizimni integratsiyalash yo‘lida faol ishtirok etmoqda. Bu elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlashni optimallashtirish imkonini beradi. O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida ishlab chiqarilgan energiyani Yevropaga yetkazish bo‘yicha loyiha tayyorlanmoqda. Taklif etilayotgan energiya koridori 2,5 ming kilometrni tashkil etib, Kaspiy dengizi tubidan Ozarbayjon va Gruziya orqali Qora dengiz tubidan Ruminiyagacha yetib boradi. Muqobil energiyani Xitoy va Rossiyaga yetkazish varianti ham ko‘rib chiqilmoqda. Bu Markaziy Osiyo yagona energotizimini to‘liq tiklash, energetika resurslaridan samarali foydalanish va istiqbolli bozor yaratish imkonini beradi.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonning yoqilg‘i-energetika kompleksi izchil modernizatsiya yo‘lidan bormoqda. Uning strategik rivojlanishi qayta tiklanuvchi va atom energiya manbalari simbiozi, uglevodorodlarni chuqur qayta ishlash, vodorod ishlab chiqarish va slanes konlarini o‘zlashtirishga hamda energiya samaradorligini oshirishga asoslanadi.

Energetika sohasida xalqaro hamkorlik chuqurlashtirib, O‘zbekiston global tashabbuslarda faol ishtirok etmoqda. Islohotlar va strategik tashabbuslarni izchil amalga oshirish orqali yurtimiz energetika tizimiga ega bo‘lib, mintaqada yetakchi o‘rinni egallashga intiladi.

O‘rta va uzoq muddatli istiqbolga qonunlar va Prezident farmonlari hamda qarorlaridan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish mamlakatda energetika tizimi va xavfsizlikni ta‘minlaydi. Bunday maqsadlar uchun yurtimizda yetarli resurs bazasi, qudratli ishlab chiqarish salohiyati va malakali ilmiy-texnik kadrlar yetarli.

Boshlanishi 1-betda

Ilk qadamlar

Yo‘q, fuqaro aviatsiyasi tarixini batafsil bayon etmoqchi emasmiz. Ammo ba‘zi ma‘lumotlarni keltirib o‘tish soha borasidagi tasavvurimizni yanada boyitadi deb o‘ylaymiz.

Yurtimiz hududida fuqaro aviatsiyasi tarixi 1924-yildan boshlangan. Birinchi fuqarolik reysi Toshkent — Bishkek — Olmaota yo‘nalishida amalga oshirilgan. 1927-yilda esa Toshkent — Kobul yo‘nalishidagi birinchi xalqaro yo‘nalish tashkil qilingan. 1958-yilda Toshkent aeroporti xalqaro aeroport maqomiga ega bo‘ldi.

Shu kungacha bosib o‘tilgan bir asrlk yo‘l hazilakam vaqt emas, albatta. U tuzum, zamon, mavjud shart-sharoit, imkoniyatlarga ko‘ra, bir tekis rivojlanmagan. O‘tgan davr mobaynida sohada tarix sahifalariga muhrlangan ko‘plab voqealar bo‘lib o‘tgan, o‘zgarishlar amalga oshirilgan tabiiy hol. Biroq butun dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi havo yo‘llari bir-biri bilan chambarchas tutashib ketayotgani fuqaro aviatsiyamizda katta islohotlarni talab qilayotir.

O‘tgan vaqt davomidagi sohaning taraqqiyot bosqichlarini inkor etmagan holda, mustaqillik yillarida boshlagan milliy aviatsiya faoliyati o‘zgacha sinov, jiddiy ijobiy o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Jumladan, mamlakat aeroportlarini va transport infratuzilmasini qayta tiklash maqsadida 1992-yili “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi tashkil etildi.

Keyinchalik esa “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi direksiyasi”, shuningdek, “Uchuvchilar majmuasi”, “Havo aloqalari bosh agentligi” va “O‘zaviatexta”minot” moddiy-texnik ta‘minot majmuasi” davlat unitar korxonalari negizida “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgan va hozir shu nomda faoliyat yuritib keladi.

Har qanday sohada dastlabki qadamlar oson bo‘lmaydi. Milliy aviakompaniya faoliyatining boshlang‘ich bosqichida fuqaro aviatsiyasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab olindi va o‘tgan davr mobaynida muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Shunday vazifalardan biri fuqaro aviatsiyasida parvozlar bo‘yicha yangi yo‘nalishlarni ko‘paytirishga alohida e‘tibor qaratildi va bu jadallik bilan davom etmoqda.

2018-yil 27-noyabrda mamlakatimiz rahbarining “O‘zbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilingan. Unda sohadagi boshqaruvning zamonaviy shakl va usullarini jadal joriy etish, tartomdagi korxonalarni jahon tendensiyalari, standartlariga muvofiq tarkibiy o‘zgartirish, aviatashuvlar bozorida raqobatni rivojlantirish, investitsiya jalb etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida qator vazifalar belgilab berilgan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida mamlakatimizning global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyasini chuqurlashtirish va milliy transport tizimi salohiyatini oshirish belgilangan. Ushbu maqsad doirasida milliy transport tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘rinishini ta‘minlash, shu jumladan, aviaqatnovlar sonini 15 foiz oshirishni nazarda tutish vazifasi qo‘yilgan, yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmini 10 foiz oshirish nazarda tutilgan.

Aviaqatnovlar sonini 4 barobar oshirish, samaradorligi past bo‘lgan hududiy aeroportlarni davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va ishonchli boshqaruvga berish ko‘rsatib o‘tilgan. Respublikaning 6 ta yirik aeroportini, jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va xususiy aviakompaniyalar sonini 10 taga yetkazish rejası qayd etilgan. Mamnuviyat bilan aytish mumkinki, bu rejalarni amalga oshirish qog‘ozdagina qolib ketmayapti.

O‘tgan yillar davomida yurtimiz hududidagi aeroportlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha ishlar ancha jadallashib ketdi. Aniq raqam va faktlar bilan aytadigan bo‘lsak, Samarqand, Termiz, Urganch, Shahrisabz, Mo‘ynoq, Qo‘qon, Zomin va Sariosiyo aeroportlari yangilandi. Qator shaharlarimizda ham modernizatsiya jarayonlari davom etyapti.

Bugun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholining energiyaga ehtiyojini qondirish imkonini bermoqda. Ya‘ni energiya ishlab chiqarishning ushbu usuli istiqbolli va kelajak texnologiyasi sifatida allaqachon o‘z isbotini topdi.



Jarayon

BIOGAZDAN ENERGIYA OLISH

HAM FOYDALI, HAM XARAJATI KAM

Aslida, elektr energiyasi tabiatda to‘g‘ridan to‘g‘ri uchramaydi. Buning foydalanayotganimiz elektr toki issiqlik elektr stansiyalari, gidroelektr stansiyalar, issiqlik elektr markazlari hamda atom elektr stansiyalarida shakllanadi. Xususan,

hozir jahonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 70 foizdan ortig‘i issiqlik elektr stansiyalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarda elektr energiyasi ishlab chiqarishning muqobil, noan‘anaviy yechimlari tobora

ommalashmoqda. Chunki ular samarali bo‘lish barobarida daromad keltirishi bilan ham alohida ajralib turadi.

Misol uchun, Germaniyaning Branderburg shahri hududida joylashgan innovatsion chorcavchilik fermasida



xizmat ko‘rsatish imkoniga ega Urganch xalqaro aeroporti modernizatsiya va boshqaruv shaklini o‘zgartirishni talab etmoqda.

Janubiy Koreyaning Incheon aeroporti bilan sheriklikda

Bu boradagi loyiha ijrosi yuzasidan davlatimiz rahbariga berilgan axborotga ko‘ra, 2024-yil avgust oyida e‘lon qilingan ochiq tender ikki bosqichda o‘tkazilgan va unda Fransiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Qatar kabi davlatlardan sakkitza kompaniya ishtirok etgan. Idoralararo tender komissiyasi qarori bilan Koreya Respublikasining “Incheon International Airport Corporation” kompaniyasi g‘olib topilgan. Ushbu kompaniya prezidenti Incheon xalqaro aeroporti sig‘imini bo‘yicha dunyoda uchinchi o‘rinda turishi va servis xizmat ko‘rsatish borasida ham yetakchilardan ekanini bildirdi.

223 million dollar qiymatidagi ushbu loyihani amalga oshirish davomida yangi uchish-qo‘nish yo‘lagi, yo‘lovchi va yuk terminallarini qurish, ICAO talablariga javob beruvchi yoritish-signal qurilmalarini o‘rnatish, maxsus texnika xarid qilish kabi chora-tadbirlar rejalashtirilgan.

“Xorazmda ko‘plab zamonaviy mehmon-xonalar, dam olish va savdo markazlari barpo etyapmiz. Kelajakda sayyohlar oqimini 5 millonga yetkazishni maqsad qilganmiz. Buni aeroporti bilan hamohang qilsak, o‘zaro manfaatli bo‘ladi, daromad ko‘payadi”, deya ta‘kidladi mamlakatimiz rahbari.

Har qanday korxona, tashkilot yoki muassasaning imkoniyati, moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati uning rivojidagi asosiy omillar sirasiga kiradi. Shu ma’noda, “Uzbekistan Airways” doimiy rivojlanishda bo‘lib kelayotganini quyidagi ma‘lumotlar ham tasdiqlaydi.

Milliy aviakompaniya parvozlari uchun hozir “Airbus A320-200”, “Airbus A320neo”, “Airbus A321neo”, “Boeing 767-300ER”, “Boeing 767-300BCF”, “Boeing 787-8”, “ATR-72”, “L-410”, “Airbus A330”, “Pilatus PC-24” rusumlaridagi o‘nlab samolyotlar xizmat ko‘rsatadi.

Fuqaro aviatsiyasida eng avvalo, parvozlarning xavfsiz, ishonchli, qulay bo‘lishiga asosiy e‘tibor qaratiladi. Bugungi kunda milliy aviakompaniyamiz havo laynerlari dunyoning deyarli barcha qit‘alariga parvozlarni yo‘lga qo‘ygan.

2024-yilda 6 milliondan ortiq yo‘lovchi tashilgan, reyslar soni 40 mingdan oshgan.



Bu 2023-yildagidan 25 foiz ko‘p demakdir. Muntazam va charter reyslar orqali 60 ming tonnadan ortiq yuk tashilgan. O‘tgan yili aviakompaniya parki yana beshta samolyotga ko‘paydi.

— Bu yil kompaniyamiz faoliyatini boshlaganiga o‘ttiz uch yil to‘ldi va bu kichik davr emas, — deydi “Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruvi raisi Shuhrat Xudoyqulov. — Hozir yaqin istiqbolga belgilangan rejarlar bo‘yicha barcha vazifalarni uddalab bo‘ldik, deya olmayman. Faoliyatimizni yanada sifatli darajaga olib chiqish bo‘yicha ishlarimiz ko‘p. “Uzbekistan Airways” dunyo bo‘yicha 100 ga yaqin yo‘nalish orqali parvozlarni amalga oshirib keladi. O‘tgan yili 6 milliondan ortiq fuqaroni tegishli manzillariga yetkazdik. Katta imkoniyat va 37 milliondan ortiq fuqaroga ega yurtimiz uchun bu oz. Texnik jihatdan yaxshi ta‘minlangan aviakompaniyamizda malakali mutaxassislarimiz yetarli. Milliy aviakompaniyamiz nufuzini belgilab beradigan birinchi galdagi ustuvor jihatlar fuqarolar uchun parvoz xavfsiz, imkon qadar qulay va shinam shart-sharoit deb bilamiz. Zero, yo‘lovchi manfaatı hammasidan ustun turadi.

“Menga avtomobildan ko‘ra, samolyotni boshqarish osonroq...”

Bolaligimizda “Mening orzuim” yoki “Kim bo‘lsam ekan?” mavzularida insho yozdirishganda o‘sha davr o‘quvchilari negadir uchuvchi bo‘lishga qiziqishini bayon qilardi. Bu balki uchuvchilikning yosh avlodda osmon qadar baland tuyg‘u, havas va yorqin taassurot uyg‘otganidadir. Garchi u paytlar aviatsiya, uchuvchilik borasidagi tushunchalarimiz anchayin sodda va tor bo‘lsa ham. Sohaning vazifasini esa odamlarni bir manzildan boshqasiga tez yetkazish deb bilganmiz, xolos.

Fuqaro aviatsiyasida har bir xodimning o‘z o‘rni va vazifasi muhim o‘rin tutadi. Shunday bo‘lsa-da, ular faoliyatini uchuvchilarisiz tasavvur etish qiyin, albatta. Lekin birgina orzu-havas bilan bu kasbga erishib bo‘lmaydi.

— Uchuvchilikni tanlashimga sabab, avvalo, ota kasb, — deydi havo kemasiing malakali komandiri Ahmadjon G‘ulomov. — Yoshligimdan shu kasbga qiziqishim bo‘lgan. Tegishli oliy o‘quv yurtini bitirib kelgach, 2015-yildan ish boshlaganman. To‘g‘ri, dastlab kichik samolyotlarni boshqarganmiz, ikki yildan so‘ng “Airbus-320” samolyotini boshqarishga o‘tdim. Hozir esa “Airbus-321” havo kemasi sardori bo‘lib ishlayman. Bizning kasbimizda birinchi galdagi vazifa yo‘lovchilarning xavfsizligini ta‘minlashdan iborat. Birinchi parvozimdagi hamma jarayon... O‘rganmagan odam uchun bu tushunarsiz holat... Ko‘p parvozlari tegishli ruhiy ko‘nikma va tajriba bilan paydo bo‘ladi. Ochig‘i, menga avtomobildan ko‘ra, samolyot boshqarish osonroq, desam to‘g‘ri tushuning. Bu ko‘p jihatdan yerdan, parvoz davomidagi o‘ziga xos tayyorgarlikka bog‘liq. Shu sababli birinchi marta parvoz qilnadigan yo‘nalish bo‘lsa, bunga alohida va jiddiy tayyorgarlik ko‘riladi. Bir oyda o‘rtacha 10-15 ta parvoz bo‘ladi va manzillar oraliig‘idagi masofasiga ko‘ra, bu raqam ko‘proq yoki kamroq bo‘lishi ham mumkin. Ba‘zi paytlarda 5-6 kunlab boshqa mamlakatda turib qolamiz va oy davomidagi parvozlari soni kamayishi mumkin. Uchuvchilikka qiziqqan yoshlarga esa har tomonlama — ruhiy va jismoniy tayyorgarlik, talab darajasida bilim olishlariga qattiq harakat qilishni maslahat bergan bo‘lardim. Eng muhimi, el-yurtimizning bizga bo‘lgan yuksak ishonchini qozonish.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

ming boshdan ziyorat nasli qoramol parvarishlanadi. Ana shu chorva mollari energiya manbai hisoblanadi. Ya‘ni fermada barpo etilgan majmuada qoramollar go‘ngidan biogaz ajratib olinib, undan elektr energiyasi ishlab chiqariladi. O‘z navbatida, elektr energiyasi birja orqali aholiga sotiladi. Bu orqali fermer xo‘jaligi joylashgan hudud atrofidagi 10 mingta xonadon elektr energiyasi bilan ta‘minlanadi. Elektr ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘lgan issiqlik energiyasi 5 mingdan ortiq xonadonning ititish tizimiga yo‘naltiriladi. Biogaz ishlab chiqarishda foydalanilgan chiqindilar esa xo‘jalik dalalarida organik o‘g‘it sifatida ishlatiladi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bizda ham biogaz texnologiyasidan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirib, ekologik muammolarni kamaytirishga yordam berishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarishda hosil bo‘ladigan chiqindilar, shuningdek, sanoat va shahar oqova suvlarini biogazga aylantirish atrof-muhit uchun foydalidir. Biogaz ishlab chiqarish ushbu chiqindi oqimlarini aktivlarga aylantirib, mahalliy va milliy

darajada qayta tiklanadigan barqaror energiya manbaini yaratadi.

Aytmaylik, 100 xonadonli qishloqdagi har bir xonadon oyiga o‘rtacha 360 ming so‘m mlık elektr toki iste‘mol qiladi. Bu 36 million so‘m faqat elektr energiyasi uchun sarflanadi, degani. Biogaz texnologiyasi orqali olingan tok esa 3 barobar arzon. Bu elektrni arzon sotish mumkin degani ham.

Bundan tashqari, biogaz elektr stansiyalaridan chiqqan qoldiqlar — organik o‘g‘itni to‘g‘ridan to‘g‘ri ekin maydonlarida ishlatish mumkin. Qayta ishlangan va turli bakteriyalardan xoli o‘g‘itlar ekinlar uchun koni foyda. Qisqasi, biogazdan elektr energiyasi olish ko‘p tomonlama foydali. Ya‘ni iqtisodiy samaradorlikda, ekologik muammolarni keskin pasaytirishda, tabiiy resurslarni ko‘proq saqlashga erishishda qo‘l keladi. Ushbu usul mana shunday ijobiy tomonlari bilan afzal.

Mo‘tabarxon AKMALXO‘JAYEVA, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi



Talablar ham undan kam emas

Ko‘pchilik tegishli oliy o‘quv yurtini tamomlagach, birdaniga samolyotni boshqaradigan jamoa safiga qo‘shiladi deb o‘ylashadi. Ammo har bir parvozda yuzlab yo‘lovchilar xavfsizligini zimmasiga oladigan bu kasbga amaliy jihatdan kirishib ketish tez fursatda ro‘y bermaydi.

Mutaxassislar ta‘kidicha, uchuvchi bo‘lish uchun “Uzbekistan Airways” aviakompaniyasiga qarashli O‘quv-mashg‘ulot markazida boshlang‘ich kurslarda o‘qib-o‘rganish ikki yil davom etadi. Asosiy talablar esa texnik universitetni tamomlagan bo‘lishingiz, IELTS testida kamida 6 ball olishingiz va albatta, sog‘lig‘ingizda muammo bo‘lmasligi kerak.

Yurtimiz fuqaro aviatsiyasi xizmati sifati xalqaro miqyosda e‘tirof etilmoqdaki, bu nafaqat sohada xizmat ko‘rsatayotganlar, shu zaminda istiqomat qilayotgan vatandoshlar qalbidagi faxr hissini uyg‘otishi tabiiy. Jumladan, Buxoro aeroporti bir necha marta “MDH mamlakatlaridagi eng yaxshi aeroport”, “Dinamik rivojlanayotgan aeroport” sifatida baholangan, shuningdek, milliy aviakompaniyamiz samolyotlari parvozlari xavfsizligini ta‘minlashdagi yutuqlari, belgilangan jadvaldan og‘ishmay ishlashi, punktualligi bilan ham xorijlik hamkasblar tomonidan munosib e‘tirof etib kelinadi. Bu kabi yutuqlar hisobot yoki ortiqcha maqtov emas, balki fuqaro aviatsiyamiz zamon bilan qadam-baqadam ijobiy o‘zgarishlarga yuz tutganidan darak beradi.

Prezidentimizning 2023-yil 16-oktabrdagi “Aviatsiya faoliyatini samarali tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Silk Avia aviakompaniyasi “Uzbekistan Airways” AJ tarkibiy bo‘linmasi hisoblangan “Uzbekistan Helicopters” MCHJ tarkibiga o‘tkazildi.

Shuningdek, mazkur qarorda “Uzbekistan Helicopters” MCHJ zimmasiga mahalliy avia-qatnovlarning sonini oshirish, parvozlari geog-rafiyasini kengaytirish, yangi yo‘nalishlarni yo‘lga qo‘yish hamda “ATR72-600” rusumli havo kemalari parkini rivojlantirish vazifalari ham belgilab berildi.

Bugungi kunda Silk Avia mamlakatimizning deyarli barcha aeroportlarini qamrab oldi, desak adashmagan bo‘lamiz. Toshkentdan Samarqand, Qarshi, Termiz, Buxoro, Navoiy, Urganch, Farg‘ona, Namangan, Andijon, Zomin, Qo‘qon, Shahrisabz, shuningdek, Nukus — Mo‘ynoq yo‘nalishida parvozlari amalga oshirib kelinmoqda. Yaqin kunlarda Toshkent — Sariosiyo — Toshkent yo‘nalishida ham aviaqatnovlar tashkil etiladi.

Milliy aviakompaniyaning Parvozlarni boshqarish markazi to‘liq takomillashtirilgani fuqaro aviatsiyamizga bo‘lgan ishonchini yanada oshiradi. Markaz hozir ilg‘or mamlakatlar aviakompaniyalarida foydalaniladigan eng so‘nggi texnik jihozlar bilan ta‘minlangan. Jumladan, katta ekranda qaysi samolyot qaysi manzildan qaysi shaharga, qanday balandlikda uchayotgani, yo‘lovchilar va boshqa eng kerakli ma‘lumotlar onlayn shaklda, o‘ziga xos yo‘nalishli xarita bilan monitor orqali namoyish etib turiladi. Bu esa parvoz xavfsizligini ta‘minlash darajasini yanada oshiradi.

Shubhasizki, ushbu sohadagi islohotlar mamlakatimiz iqtisodiy yuksalishi, aviakompaniya faoliyati samaradorligini oshirish, uning raqobatbardoshligini, parvozlari xavfsizligini ta‘minlash nuqtayi nazaridan o‘ta muhim ahamiyatga ega. Demak, tinchlik maqsadlariga xizmat qilayotgan fuqaro aviatsiyasini rivojlantirishning yangi bosqichlari kutmoqda.

Rustam BOYTO‘RA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri





Behzod Yo‘ldoshev
tavalludining 80 yilligi

SALOBATI ULUG‘VOR

AMMO O‘ZI KAMTARIN

ILM FIDOYISI EDI

Insonning qalbi ma‘rifat bilan quvvatlanadi, qadri esa ilm bilan yuksaladi. Yurtimizda ma‘rifatdan quvvat olib, ilmdan qadr topgan insonlardan biri akademik Behzod Yo‘ldoshev edi. U hayoti davomida olimlikning butun mashaqqatini, sharafini totib ko‘rdi va chinakam kamolotga erishdi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, elementar zarralar va atom yadro fizikasi sohasidagi dunyo tan olgan olim B.Yo‘ldoshev 1945-yil 9-mayda Toshkent shahrida, ziyoli oilada dunyoga kelgan. 1968-yilda Toshkent davlat universitetining fizika fakultetini imtiyozli tugatgan, 1971-yilda Dubnadagi Birlashgan yadro tadqiqotlari institutida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1981-yilda esa fizika-matematika sohasida doktorlikni yoqlagan.

U nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilganida 25 yoshli navqiron yigit edi. Shu paytgacha Birlashgan yadro tadqiqotlari institutida hech kim bu yoshda yadro fizikasi sohasida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan emasdi.

Behzod Yo‘ldoshev O‘zbekiston Fanlar akademiyasidagi ilk ilmiy faoliyatini Yadro fizikasi institutida kichik ilmiy xodimlikdan boshlagan, so‘ngra Fizika-texnika institutida katta ilmiy xodim, laboratoriya mudiri, Yadro fizikasi instituti direktori, 2000-2005 va 2017-2024-yillarda O‘zFA prezidenti lavozimida ishlagan. 2001-2005 va 2020-2024-yillarda Oliy Majlis Senati a‘zosi — senator bo‘lgan.

Davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, biz bugun milliy tiklanishdan milliy yuksalishga erishishni o‘z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qo‘g‘dik. Shubhasiz, bu yuksalishga erishish yo‘lidagi muhim omillardan biri ilmi-fan rivojidir. Shu bois, Shavkat Mirziyoyev Prezidentligining dastlabki kunlaridayoq ilm ahli, akademiklar bilan uchrashdi va 2017-yilda Fanlar akademiyasi prezidenti lavozimiga akademik B.Yo‘ldoshev saylandi.

O‘sha kundan respublikaning eng yirik ilmiy tashkiloti — Fanlar akademiyasi uchun yangi



Behzod Yo‘ldoshev tashabbusi bilan Rossiyaning Birlashgan yadro tadqiqotlari institutidagi O‘zbekiston Respublikasi a‘zoliqi qayta tiklangan. U 400 dan ziyod ilmiy ish, jumladan, 5 ta monografiya va 20 dan ortiq ixtiro muallifidir. Uning ilmiy rahbarligida 10 nafar fan doktori va 30 nafarga yaqin fan nomzodi tayyorlangan.

Olim Beruniy nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti va Xalqaro ESO mukofoti sovrindoridir. “Mehnat shuhrati”, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan. “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi”, “Qorapog‘istonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvonlariga ega.

Akademik o‘z ustida muntazam ishlar va atrofidagilar ham bilimli bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berishga intilardi.

“Behzod Yo‘ldoshev FA prezidentligiga saylangan dastlabki paytlar edi. Bir kuni xonamga kirib kelib, “Salom, men Behzod” deb qo‘l uzatdi. Meni taajjublantirgani, salobatining o‘ziyoq odamni hayiqtiradigan shunday olim, rahbar oddiy xodimga o‘zini kamtarona tanishtirsa?! Shu kundan boshlab unga hurmatim yanada oshdi.

davr boshlandi. Tashkilotning yangi prezidenti esa ushbu islohotlar boshida turganlardan biri bo‘ldi.

Behzod Yo‘ldoshev rahbarlik faoliyatini boshlaganda akademiya jar yoqasiga kelib qolganidi. Tizimda atigi 18 ta ilmiy tashkilot mavjud bo‘lib, qolganlari turli vajlar bilan yopilgan yoki qaysidir tashkilot va vazirliklar ixtiyoriga o‘tkazib yuborilgandi.

Ko‘p o‘tmay islohotlar natijasi birin-ketin bo‘y ko‘rsata boshladi. Oldingi ilmiy tashkilotlar akademiya tarkibida qaytarildi, yangilari tashkil etildi. Yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash, xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, yirik dasturlarni amalga oshirish, ilmiy natijalarni iqtisodiyot tarmoqlariga yo‘natirish asosiy maqsadga aylandi.

Ilmiy faoliyati elementar zarralar fizikasi, yadro fizikasi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va tibbiyot sohalarida yadro texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalarni qamrab olgan Behzod Yo‘ldoshev dunyo tan olgan fizik olim edi. U Amerika fiziklari jamiyati a‘zosi, Indiana, Vashington (AQSH) va Kembrij (Buyuk Britaniya) universitetlari faxriy doktori, Islom dunyosi akademiyasi — IAS akademigi, Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti (Rossiya) faxriy doktori, Xalqaro fanlar akademiyalari uyushmasi — MAAN akademigi, Qozog‘iston Milliy fanlar akademiyasi xorijiy a‘zosi, Rossiya Ta‘lim va fan vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi a‘zosi, 2022-yilda nanoteknologiyalar va axborot texnologiyalari yo‘nalishida Rossiya Fanlar akademiyasining xorijiy a‘zosi etib saylangandi.

U Avstriyaning Vena shahrida joylashgan Xalqaro atom energiyasi agentligining fan bo‘yicha maslahatchisi hamda Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi lavozimlarida faoliyat yuritgan va shu sohada ilmiy maktab yarata olgan olim edi. Akademik yadroviy xavfsizlikni mustahkamlash va yadro qurollarini tarqatmaslik bo‘yicha amaliy yechimlar ishlab chiqish yuzasidan yirik loyihalarga rahbarlik qilgan.

Mohira JUMANOVA,
O‘zFA matbuot kotibi



Akmal SAIDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati,
Inson huquqlari bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori

Bu tadbirlar mohiyatida O‘zbekiston xalqining tarixiy qahramonligi, fidokorona mehnatini ulug‘lash, yosh avlodni ona vatanga sadoqatli, bugungi tinch, osoyishta hayotni asrab-avaylashga qodir insonlar etib tarbiyalash maqsadi mujassam.

O‘zbekiston Prezidentining bu boradagi ikki farmoni va qarorida e‘tirof etilganidek, xalqimizning vatan himoyasi yo‘lidagi yuksak mardliqi va qahramonligi barcha avlodlar uchun namuna va ibrat maktabi vazifasini bajarib kelmog‘da.

Xususan, Ikkinchi jahon urushiga o‘zbekistonliklarning 2 millionga yaqini safarbar etilib, shundan 538 mingdan ortig‘i jang maydonlarida qahramonlaracha halok bo‘lgan, 158 mingdan ortig‘i bedarak yo‘qolgan. Mustaqillik yillarida 200 ga yaqin harbiy xizmatchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligi yo‘lida jonini fido qilgan.

Yurtimizda aynan G‘alaba bog‘i timsolida, jumladan, urushda asir tushgan, konslagerlarda vafot etgan yoki bedarak ketgan vatandoshlarimiz xotirasini yod etishga ham jiddiy e‘tibor qaratilganini ta‘kidlash lozim. Bu yerda Niderlandiyaning “Amersfort” konslagerida fashistlar tomonidan olib tashlangan 101 o‘zbek askarining fojiali taqdiri bilan bog‘liq shu paytgacha oshkor etilmagan arxiv hujjatlari saqlanayotgani fikrimiz tasdiq‘idir.

Gap shundaki, niderlandiyalik taniqli tadqiqotchi va yozuvchi Remko Reyding faoliyati davomida urush yillari o‘z vatani hududida joylashgan “Amersfort” konslagerida asir bo‘lgan sovet harbiylari qabristonida 865 noma‘lum askar ko‘milgani, ularning 101 nafari o‘zbek bo‘lganini aniqlagan. Dastlabki olti oyda 24 asir o‘chlik, kasallik va shafqatsiz munosabat tufayli erta vafot etgan bo‘lib, qolgan 77 kishi esa 1942-yil 9-aprelda o‘tib tashlangan.

O‘sha konslagerda asirlikka bo‘lgan niderlandiyalik bir mahbus 9 ta portret chizgan. Shundan faqat ikkitasida **Hotam Qodirov** va **Zoyir Murodov** ismlari yozilgan ekan. Zero, 101 o‘zbek askari fashistlar konslageridagi mislsiz azob-uqubatga qaramay, insoniy o‘r-nomusi va milliy g‘ururini saqlab qolgan. Mualliflar A.Irgashev va Yu.Medvedovskayaning ushbu mavzuga bag‘ishlangan **“Bir yuz bir” nomli romani** G‘alaba bog‘idagi muzey ekspozitsiyasi va kutubxonadan joy olgan.

Bu tarixiy hujjatlar bilan tanishib, “Amersfort”da asir tushgan 101 o‘zbekning chekkan uqubatlariidan yuragingsiz dog‘lanadi. Biroq go‘yo ularni ozod etishga shoshayotgan O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan va frontga peshma-pesh jo‘natilgan samolyotlar, snaryadlar, shuningdek, o‘sha mash‘um kunlardagi jangovar hayot sasi, o‘zbek jangchilarining mardonona ovozi yupanch, qalbingizga dalda bo‘ladi.

Remko Reyding nomi yurtdoshlarimizga yaxshi tanish va juda qadri. Chunki u Ikkinchi jahon urushi davrida Smolenskda qashqatqich janglarda mardlaracha kurashgan va asirga olinib, fashistlarning Niderlandiyadagi “Amersfort” konslageriga tashlangan 101 o‘zbek askarining achchiq qismati haqida birinchilardan bo‘lib bong urgan fidoyi ijodkor.

Niderlandiya zaminida xoki yotgan 101 o‘zbek jangchisi 1941-yilda fashistlar tomonidan asir olingan va 1942-yil 9-aprelda qatl etilgan. Aynan Remko Reyding tashabbusi va sa‘y-harakatlari bilan “Sovet jangchilari shon-shuhrati maydoni” jamg‘armasi har

Shu kunlarda keng jamoatchilik vakillari ishtirokida yurtimizning barcha hududida Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80-yilligi hamda 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan “Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi” shiori ostida harbiy-vatanparvarlik va madaniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazilmog‘da.

yili shu qayg‘uli sanada sobiq “Amersfort” konslagerining yurtdoshlarimiz otib tashlangan maydonida xotira tadbiri o‘tkazib keladi.

R.Reyding Ikkinchi jahon urushining o‘zbekistonlik 101 qahramoni va qurboni taqdirini chuqur o‘rganib, shu qayg‘uli va ibratli voqea tafsilotlari haqida “Shon-shuhrat maydoni bolalari” nomli kitob yozgan. Bu boradagi izlanishlarini 20 yildan buyon sadoqat va matonat bilan izchil davom ettirmog‘da.

Kamina 2022-yil yanvarida Bryusselda taniqli jurnalist va adib Remko Reyding bilan bir necha bor uchrashganman. Qizg‘in muloqotlarimiz chog‘ida qattol urushning o‘zbekistonlik 101 qahramoni va qurboni taqdirini chuqur o‘rgangani hamda ana shu qayg‘uli va ibratli voqea tafsilotlari haqida alohida kitob yozgani uchun unga minnatdorlik izhor etish imkoniga ega bo‘lganimdan faxrlanaman.



O‘sha muloqotlarning birida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2020-yili Toshkent shahrida ochilgan “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi tarkibida 101 o‘zbek jangchisi xotirasiga bag‘ishlab “Konslager” yodgorligi bunyod etilgani haqida gaplashdik. Shuningdek, “Shon-shara” davlat muzeyida, R.Reyding to‘plagan tarixiy dalil va hujjatlardan foydalangan holda ayni mavzuni yoritishga qaratilgan maxsus pavilyon ishlab turganiga oid xabarni u mamnuniyat bilan qabul qildi.

Niderlandiyalik madaniyat arbobi B.Charlak 2021-yilda “O‘zbekiston — Buyuk ipak yo‘lining gavhari” nomli kitobini nashr ettirdi. Ushbu kitobda 101 o‘zbek askarining achchiq qismati haqida R.Reyding taqdim etgan tarixiy ma‘lumotlar qayd etilgan.

E‘tibor bering: BMT Bosh Assambleyasi 2025-yilni Xalqaro tinchlik va ishonch yili deb e‘lon qilgani zaminida muayyan hayotiy voqealar va tahdidli dalillar yotibdi. Stokgolm tinchlik muammolarini o‘rganish instituti (SIRPI) hisobotida qayd etilishicha, 2024-yilda global harbiy xarajatlar 2,7 trillion dollarga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 9,4 foiz oshgan. Bu “sovuq urush” davri tugaganidan beri kuzatilgan eng keskin o‘shidir. Afssuski, mudofaa xarajatlarning oshish tendensiyasi ketma-ket o‘n yildan beri davom etmog‘da.

Prezidentimiz Parlamentlararo Ittifoqning yaqinda mamlakatimizda o‘tkazilgan 150-Assambleyasidagi nutqida tashvish bilan uqtirganidek, **“So‘nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida qurolli to‘qnashuvlar, ekologik va texnogen fojialar, iqtisodiy inqirozlar, “savdo urushlari”, terrorizm va ekstremizm tahdidlari tobora kuchayib bormog‘da. Bunday o‘ta murakkab sharoitda jahonda tinchlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta‘minlashda parlamentlar ishtiroki va ta‘sirini oshirishni zamonning o‘zi talab etmog‘da”**.

Binobarin, Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng mudhish, eng beshafqat to‘qnashuv bo‘lganini unutishga haqqimiz yo‘q. O‘shanda jangu jadallar Yevropa, Osiyo va Afrika qit‘alarida, havo va okeanlarda

kechgan. Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra, bu urushda jami 85 milliongacha inson halok bo‘lgan. Yer yuzi behisob vayronagarchilik va qahatchilikka yuz tutgan.

BMT Inson huquqlari bo‘yicha oliy komissari (hozir sobiq) Zayd Raad al-Husayn O‘zbekistonga rasmiy tashrifi doirasida 2017-yil 12-may kuni Yer yuzi sayqali sanalmish Samarqand shahrini ziyorat qilganida unga hamroh bo‘lgandim. Ushbu nufuzli mehmon o‘shanda Ikkinchi jahon urushi davrida fashistlar istilo qilgan Gollandiya (Niderlandiya)ga maxsus poyezdda olib kelingan 101 o‘zbek askarining asirligidagi achchiq qismati haqidagi jurnalist tadqiqotlarini o‘qib, xalqimizning mehribonligi va ulug‘vorligiga ixlosi chandon ortganini so‘zlab bergandi.

Bu o‘rinda fashistlarning targ‘ibot bo‘yicha reysx-ministri Yozef Gebbelsning mash‘um rejasiga ko‘ra, janggohlarda asir olingan va Yevropadagi o‘lim lagerlaridan

biri bo‘lmish “Amersfort”ga qamalgan o‘zbek o‘g‘lonlari tarixi haqida so‘z bormog‘da. Ushbu harbiy asirlar Moskvaga boshlanadigan hujum oldidan fashist armiyasining ruhini ko‘tarishga qaratilgan “targ‘ibot filmi”da “jonli va ta‘sirchan rol” o‘ynab berishlari kerak bo‘lgan. Ammo ushbu qabih reja amalga oshmagan.

Gap shundaki, lagerning atrofi o‘ralgan, seryomg‘ir osmon ostidagi qo‘rasida yurtdoshlarimizga necha kunlab ovqat berilmay, g‘ayriinsoniy sharoitda saqlangan. Ular kunduzi tog‘da tosh maydalash va tashishga majburlanib, kechasi uxlashga imkon berilmay, shafqatsiz kaltaklangan, tinimsiz xo‘rlangan. Bir kuni lagerga Gebbelsning generallari boshchiligidagi fashist amaldorlari, shuningdek, kinooperatorlar va rejissyorlardan iborat katta ijodiy guruh keladi.

Shu munosabat bilan ozoda va sarishta liboslardagi, ko‘rkam ko‘rinishli fashist ofitserlari ezilgan va azobdan bukhchayib qolgan, juldur kiyimlardagi asir qarshisida saf tortadi. Chiroqlar yonadi, kino kameralari ishga tushadi. Mashinada yangi yopilgan, yoqimli hidi ufurib turgan issiq nonlar olib kelinadi. Nemis ofitseri o‘ziga novvoy uzatgan bulkani olib, devordan ichkariga — o‘zbek asirlari tomon ulotiradi.

Fashistlar fikricha, “inson qatorida ko‘rilmaydigan”, lagerdagi “sharoitlar” tufayli odamiyligi qiyofasini ham yo‘qotayozgan och-nahor va xastahol asirlar o‘zaro non talashib, kinobop tomosha ko‘rsatishi kerak edi. Bu, o‘z navbatida, Gitlerning nemislar — oliy irq, boshqa millatlarda esa insoniylikka xos zig‘ircha ham xislat yo‘q, degan manfur g‘oyasini tasdiqlab berardi. Biroq bunday bo‘lmaydi.

Atrofga jimjitlik cho‘kadi. Bir muddatdan keyin asirlardan biri yerda yotgan nonni qo‘liga olib, uch marta o‘padi va ko‘ziga surtadi. So‘ng nonni keng davrada chordona qurib o‘tirgan o‘zbek asirlarning yoshi ulug‘iga — muallimga olib boradi. Muallim nonni bo‘laklab, dastlabki ushug‘ini eng kichik yoshli mahbusga uzatadi.

Shu tariqa non bo‘laklari hammaga teng taqsimlanadi. Muallim oxirgi bo‘lakni o‘ziga

oladi. O‘zbek birodarlarimiz shoshmay, hovliqmay, o‘doh saqlab, birin-ketin navbat bilan yeydi. Oxirida Xudoning ne‘mati uchun shukrona fотиhasi o‘qilgach, ular tarqaladi.

Bunday kutilmagan senariy fashistlar taxmin qilgandek yakun topmaydi. Oqibatda yurtdoshlarimiz juda qattiq jazolanadi. O‘zbek asirlarning hammasini o‘rmonga olib borib, otib tashlashadi.

Keyinchalik bu ibratli tarixiy voqeadan xabar topgan gollandiyalik jurnalist, yozuvchi va tadqiqotchi Remko Reyding uzoq izlanishlari natijasida ayni mavzuda yirik kitob yozgan. Mualliflar Anvar Irgashev va Yuliya Medvedovskayaning “Bir yuz bir” nomli romani ham shu mavzuga bag‘ishlangan. Bu haqda yana kitoblar chop etilmog‘da, ommaviy axborot vositalarida atroflicha ma‘lumotlar e‘lon qilinmog‘da.

O‘z navbatida, g‘alabaning 75 yilligi arafasida o‘zbek kinoijodkorlari millatimizning go‘zal siyrati, azaliy odobi va insonparvarlik fazilatlarini teran ochib beradigan ushbu hayotiy qissa asosida “101” nomli badiiy filmni tasvirga oldi. Qattol urushning 101 qahramoni va qurboni haqidagi bu film “O‘zbekkino” milliy agentligi tomonidan muvofiqlashtirilgan holda “Uzbekistan Film”, “Omad Film Production”, “DF SERVICE” kompaniyalari hamkorligida tayyorlangan.

Rejissyor Hamidulla Hasanovning Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbekistonlik bir yuz bir askarning mardonavor jasorati va fojiali taqdiri haqidagi hujjati ma‘lumotlarga asoslangan “101” filmi milliy kinematografiyamiz uchun yana bir ahamiyatli qadam bo‘ldi. **“Bir yuz bir o‘zbek qahramonining Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaga qo‘shgan bebaho hissasi, ommaviy qahramonligi butun dunyodagi insonlar xotirasida abadiy saqlanib qoladi!”** — deydi senariy muallifi Yuliya Medvedovskaya.

Shu ma‘noda, inson qadriini joyiga qo‘yish yo‘lidagi ulkan xizmatlari, xususan, Niderlandiya zaminida fashizm qurboniga aylangan o‘zbek jangchilari shaxsini aniqlash yo‘lida ko‘rsatgan fidoyiligi va yurtdoshlarimiz xotirasiga yuksak hurmat-ehtiromi uchun Remko Reyding har qancha tahsinu e‘tirofimizga munosib deb bilaman.

Remko Reyding hozir Niderlandiyaning “Sovet jangchilari shon-shuhrati maydoni” jamg‘armasi boshqaruvi raisi lavozimida ishlaydi. Mazkur yodgorlik majmuasi Amersfort shahirining “Rastxof” qabristoniga tutash hududda joylashgan, bu yerda 865 sovet askari, jumladan, 101 o‘zbek jangchisi dafn etilgan.

R.Reyding ana shu qurbonlarning shaxsini aniqlashirish uchun izchil izlanishlar olib bormog‘da. Xususan, 2021-yilda o‘zbekistonlik jangchilarga taalluqli ekani taxmin qilingan bir qancha tarixiy hujjatlarni topishga muvaffaq bo‘lgan.

Tadqiqotchining ushbu qurbonlari xotirasini tiklash, shaxsini aniqlash, qarindoshlarini topish borasidagi egzu faoliyati Niderlandiya va Rossiya tomonidan yuqori baholangan. Xususan, u 2014-yilda Niderlandiyaning Oran-Nassau ordeni ritsemi unvoni bilan taqdirlangan. Lyosden shahri (Niderlandiya) merligi 2019-yilda R.Reydingni jamiyat oldidagi xizmatlari uchun Anni de Boforspeld ko‘krak nishoni bilan mukofotlagan.

R.Reyding O‘zbekistonga bir necha bor kelgan va Ikkinchi jahon urushi davridagi o‘zbek jangchilari jaboratiga bag‘ishlab tashkil etilgan tadbirlarda qatnashgan. Ayniqsa, “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi bunyod etilganidan keyingi davrda yurtimizga tashrif buyurib, ommaviy axborot vositalarida ushbu tarixiy majmuadan olgan taassurotlarini samimiy izhor etgani e‘tiborlidir.

Uning Niderlandiya tuprog‘ida dafn etilgan o‘zbek jangchilari qabrlarini obod qilish tashabbusi, bir tomondan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mos bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yangi O‘zbekistonda inson qadriini ta‘minlash borasidagi davlat siyosatiga to‘liq javob beradi.

Yanada muhim, bu boradagi ma‘naviy-ma‘rifiy tashabbuslar O‘zbekiston xalqining tarixiy qahramonligi, fidokorona mehnatini ulug‘lash, yosh avlodni ona vatanga sadoqatli, bugungi tinch, osoyishta hayotni asrab-avaylashga qodir insonlar etib tarbiyalashga xizmat qilishi bilan g‘oyat qadri. Davlatimiz rahbari ta‘biri bilan aytganda, **“Biz tinchlik va mustaqillik uchun o‘z jonini ayamagan ota-bobalarimiz va mard o‘g‘lonlarimizning ulkan jasorati, matonati hamda fidoyiliklarini yuragimizda abadiy saqlaymiz”**.

TOPGANIMIZ TA'LIMGA BUYURSIN

Turli marosim va to'ylarni ixcham o'tkazish xalqimizning bir asrlik orzusiga aylangan. Jadidlarimiz kurasha boshlagan isrofgarchilikdan hali-hamon qutulib keta olmadik. Davrning o'zi bu masalani huquqiy asosga tayanib hal etish fursati yetganini ko'rsatyapti.

Bugun mamlakatimizda to'ylar va oilaviy boshqa marosimlarni o'tkazishni huquqiy asosda tartibga solish masalasi jamoatchilik muhokamasi markazida turibdi. Ushbu hujjatni qabul qilishdan ko'zlangan maqsad isrofgarchilikka qarshi kurashish, yosh avlodni tejamlorlik va oqilona sarf-xarajatga o'rgatishdir. U aholining real kayfiyati va ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilmoqda.

Bunday hujjatlarni qabul qilish real vaziyatni puxta o'rganish, aholi fikrini bilishni talab qiladi. Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan 2023-2024-yillarda ilmiy-amaliy izlanish o'tkazilgan edi. "Jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitini baholash va sog'lomlashtirish" mavzusidagi keng qamrovli so'rovnoma natijasi ushbu hujjatni tezroq qabul qilish kerakligini ko'rsatadi. Fikrimiz asosli bo'lishi uchun so'zimizni tadqiqot bo'yicha mavzuga tegishli natijalar tahlili bilan davom ettirsak.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Ushbu tadqiqotda mamlakat aholisining 1 foizi, ya'ni 347 mingdan ortiq fuqaro qamrab olindi. Ilmiy jihatdan bu miqdor sotsial o'rganuv o'tkazish va baholashga yetarlidir. Mazkur tadqiqotda aholining to'y va boshqa marosimlar borasidagi kayfiyati, intilishi va ijtimoiy faollik darajasi ijobiy ko'rsatkichga ega ekanini ko'rindi. Masalan, so'rovnoma "Oilaviy tadbirni, to'y yoki boshqa ma'rakani hamma kabi emas, balki boshqacha, ya'ni faqat yaqinlari bilan o'tkazishga qaror qilgan oilaga qanday munosabatda bo'lar edingiz?" degan savol ber edi. Umumiy xulosaga ko'ra, 68 foiz ishtirokchi bunday harakatni qo'llab-quvvatlashini bildirgan. Bu raqam jamiyatimizda boshqalar gapiga quloq tutmay, o'zi uchun qulay sharoit yaratish, ommaga ergashmay, mustaqil qaror qabul qilishga intilish kuchli ekanini ko'rsatadi. Bu ijtimoiy an'analarga nisbatan tanqidiy yondashuv shakllanib borayotganidan dalolat.

"Sizningcha, oilaviy ajralishlarning ko'payishiga nimalar sababchi bo'lyapti?" degan so'rov tadqiqotning yana bir muhim savoli edi. Bunga respondentlarning aksar qismi sabr-qanoat yo'qligini birinchi sabab sifatida ko'rsatdi. Ikkinchi o'rinda esa aynan "Urf-odat va marosimlarning serxarajatligi turadi", degan javob bo'ldi.

jiddiy ijtimoiy buyurtma shakllanganini ko'rsatadi. Tadqiqotda yana bir ijobiy tendensiya kuzatildi — jamiyatimiz bolalar ta'limiga ham jiddiy e'tibor bera boshlagan.

Ishitirokchilarga "Mablag'ingiz hayot darajasini ta'minlash uchun yetarli bo'lsa, ortiqchasini nimaga sarflar edingiz?" degan savol berildi. Ularning 32 foizi mablag'ni farzand ta'limi va tarbiyasiga sarflashini afzal ko'rishini aytgan. Demak, jamiyatimizda topganimiz to'yga emas, ta'limga buyursin, deyidigan insonlar ko'payib bormoqda.

To'y va boshqa marosimlarni tartibga solishga oid yangi hujjat qabul qilinishi faqat huquqiy chora emas, balki jamiyatning ichki talabidan kelib chiqqan muhim islohotdir. Keyingi yillarda yurtimizda kitobxonlikka keng e'tibor berilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar zamonga mos targ'ib etilyapti. Bunday islohotlar samara bera boshladi. Asriy muammoga xalqimizning o'zi yechim beriyapti. Muhimi, bunday o'zgarishlar ilmiy tadqiqot, sotsiologik so'rovlar orqali amalga oshayotgani huquqiy hujjatga ehtiyoj borligini ko'rsatmoqda.

Suhrob XIDIROV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lim boshlig'i

Inson qachondir boshidan o'tkazgan har qanday og'ir va og'riqli kunlar uni nimalargadir o'rgatadi. Masalan, ushbu holat takrorlanmasligi choralarini ko'rishga ko'nikma hosil qiladi. Har kimning o'z o'tmishi bor. O'sha o'tmishi nurli bo'lsa, uni rivojlantiradi yoki zulmatli o'tmishi ta'qib qilmasligi uchun undan qochadi. Buning nomini xulosa deydlar. Hamma gap o'sha xulosani to'g'ri chiqarishda.

Birinchi holat. Onam bilan shifokor ko'rigidan qaytayotgan edik. Muolajani boshlash uchun dori olmoqchi bo'lib, uyimiz yaqinidagi yaxshi dorixonani mo'ljallab ketyapmiz. Chorahaning qizil chirog'ida to'xtadim. Mening oldimda to'xtagan yuk avtomobili bilan chap tomondagi yengil mashina haydovchisi qo'llarini paxsa qilib bir-biriga nimalardir derdi. Fursat o'tmay har ikkovi mashinadan tushib, ko'chada mustlasha boshladi. Atrofdagilar nima bo'layotganini anglashga, kelib ularni ajratishga, murosaga keltirishga ulgurmasdan, jismoniy imkoniyatlari nisbatan yuqori bo'lgan yuk avtomobili

Ma'naviyat ko'p narsaga, ko'p narsa esa ma'naviyatga bog'liq. Hayotning o'zi ma'naviyat. U adolat, mehr, tarbiya, odob, ilm, e'tibor, qunt, intilish va hokazolar bilan butunlik kasb etadi. Chiroyli, toza-ozoda va o'ziga yarashgan kiyim kiyish, davralarda o'zini bosiq, xotirjam tutish, mehmonnavozlik, uy-joyni sarishta saqlash, kattaga hurmat, kichikka izzat — bularning bari ma'naviyat!

haydovchisi raqibini ayovsiz, shafqatsizlik bilan kaltaklashga tushdi.

Bu kabi xunuk manzarani ko'rib ko'nikmagan onamning "Hozir bir-birini o'ldirib qo'yadi-ku", deya mazasi qochdi. Shahd bilan mashinadan tushib, onamning "hay-hay"lashiga qaramay, ular tomon yugurdim. Ungacha 5-6 yo'lovchiyu boshqa haydovchilar vaziyatni yumshatish harakatini boshlab yuborgan edi. Yaqinlashganimda yengil mashinaning 25 yoshlar atrofidagi egasi kaltak va zarbalardan yerda yuz-ko'zi qon bo'lib yotardi. Unga qaraganda 2-3 yosh kattaroq bo'lgan mustumtuzor bironing gapiga quloq solmas, atrofdagilarning ushlab olganiga qaramay, raqibi tomon xezlanishda davom etardi.

Bu orada chorahada harakat to'xtab, tirbandlik boshlangan, tomoshatalablar ancha ko'payib qolgandi. Ma'lum bo'lishicha, chorahaga yaqinlashishda biri ikkinchisiga xalaqit bergan, unisi yomon so'z bilan so'kingan, bunisi javob qaytargan, og'zaki jang avj olib, mushdlashuvga aylangan.

Ko'p o'tmay yo'l-patrul xizmati xodimlari yetib kelib, biri tirbandlikni bartaraf etish, yana biri haydovchilar bilan surishtiruv ishiga kirishib ketdi. "Tez yordam" ham paydo bo'lib, jabrlanuvchiga malham bosdi.

— Yoshlarga nima bo'lgan-a, inson insonni tahqirlashi shu qadar oson bo'ldimi? — dedi onam harakatni davom ettirganimizda. — Yuragim o'ynab ketdi-ya. Axir ayb ish qilgani bir og'iz uzr aytib, bilmay qoldim, mendan o'tdi, desa-ku, olam — guliston. Sen ham

yo'lda yurasan, juda ehtiyot bo'lg'in, jahlg'a erk berm'a, og'ir-vazmin odam yutqazmaydi, hech bo'lmasa, bitta gapdan qol, o'chakishish yaxshilik olib kelmaydi, bolam! Jim turgan har qanday kishi javob qaytarishdan ojiz, jim turish o'zlik, degani emas. Shunday kishilar bor, qalbi og'riyotgani, agar gapirsa, bu og'riq yanada kuchayib ketishi tufayli jim turadi. Shundaylar bo'ladiki, gapirgan gapi foyda bermasligini bilgani uchun ham sukut saqlaydi. Ular boshqalarga zarar berib qo'ymaslik uchun g'azabini bosib sukut saqlaydi. Ba'zilar o'zlik sanaydigan sukut aslida katta kuch mahsulidir!

— Xo'p, oyijon! Ko'ngilga yaqin olmag, ko'chada shunaga ahmoqlar bir-birda uchrab turadi.

Dorixonadan muolaja uchun yozilganiga qo'shimcha yurak dori ham sotib olishimga to'g'ri keldi.

Ikkinchi holat. Avvalgi ish joyim manzili "Xalqlar do'stligi" metrosiga yaqin joyda edi. Tahririyatimiz joylashgan salobatli binoning qavatlari ko'plab turli idoralarga ijaraga berilgan bo'lib, kim qaysi tashkilotda ishlashini aniq bilmasak-da, eshikdan kirib-chiqib yuradigan xodimlarning yuz-ko'zlari issiq bo'lib qolgandi.

Yoz fasli edi. Bir kuni ertalab odatdagidek metrodan chiqib ishxonaga borayotsam, mendan 10-15 qadam oldinda 7-qavatda ishlaydigan Igor aka ketyapti. Ko'rinishi ziyoli, yuzi cho'zinchoq, bir tutam sochini doim silliq tarab yuradigan 55 yoshlar atrofidagi bu odam bilan shaxsan salom-algimiz bo'lmasa-da, ismini eshitgandim. Yanglishmasam, iqtisodiyot sohasi bilan bog'liq tashkilotda mutaxassis edi.

Xullas, Igor aka doim ko'tarib yuradigan sumkasidan yarim litrli yelim idish chiqarib, ichidagi suvni yo'l chekkasida katta tuvakka ekib qo'yilgan manzarali gullarga quydi. Suv eski bo'lsa, idishini bo'shatdi shekilli deb o'yladim. Keyin boshqa idish olib, sal naridagi ikkinchi tuvakdagi gullarga ham suv to'kdi. Hayron bo'ldim. Kunlar o'tib, ayni holatga yana 2-3 bor guvoh bo'ldim.

Bir kuni metrodan chiqishda salom berib, o'zimni tanishtirdim. Bitta binoda, ammo turli tashkilotlarda ishlashimizni, bir-birimiz bilan deyarli gaplashmaganimizni, bu kamchilikka barham berish kerakligini aytib, kuldigan bo'ldim. Bir oz yurganimizdan keyin men kutgan va menga kerak holat yuz berdi. Igor aka sumkasini ochib, suv oldi.

— To'g'risi, avval ham shu ishingizni ikki-uch bor ko'rdim. Nega bunday qilasiz? Idishda qanday suv, nega uni to'kib yuborasiz?

Gullarga obihayot berar ekan, Igor aka bunday dedi:

— Yerga, daraxtlar orasiga ekilgan gullar kerak paytda sug'orish tizimi orqali suv ichadi. Qarasam, mana bu tuvakdagi gullar doim qaqrab yotadi. Ora-chora suv ichirib turaman. Tabiat tirik jon, unga ham g'amxo'rlik kerak.

— Shuning uchun har kuni uydan suv olib kelasizmi?

— Ha, menga buning og'irligi yo'q. Idishlarni uyim oldidan oqib o'tadigan ariqdan to'ldirib olaman.

— Sizning bu ishingiz haqida maqola yozsak bo'lar ekan.

Hozircha bu gapimning uddasidan chiqqa olmagun bo'lsam-da, qachonki o'sha tomonlarga yo'lim tushib qolsa, Igor aka hayot berib kelayotgan katta tuvakdagi gullar yonidan yuraman. Gurkirab, yashnab o'sayotgan gullar bu yo'ldan hamon Igor aka o'tib-qaytayotganidan darak berib turadi.

Yuqoridagi ikki voqeani bejiz tilga olmadik. Nazarimizda, ularning asosida inson ma'naviyati yotibdi. Har qanday vaziyatda, holatda inson ma'naviyati bilan insondir. Gohida shuni unutib qo'yayotganimiz esa achinarli, albatta. Bugun, davlatimiz rahbari ta'бири aytganda, ma'naviyat hayotimizda yangi kuch,

yangi harakatga aylanishi lozim. Azaldan dunyo tan olgan ma'naviyati yuksak xalq, millat sifatida o'zligimiz, ildizlarimizdan boxabarlik kerak bugun bizga. Buni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Ma'naviyat ko'p narsaga, ko'p narsa esa ma'naviyatga bog'liq. Hayotning o'zi ma'naviyat. U adolat, mehr, tarbiya, odob, ilm, e'tibor, qunt, intilish va hokazolar bilan butunlik kasb etadi. Chiroyli, toza-ozoda va o'ziga yarashgan kiyim kiyish, davralarda o'zini bosiq, xotirjam tutish, mehmonnavozlik, uy-joyni sarishta saqlash, kattaga hurmat, kichikka izzat — bularning bari ma'naviyat!

Xushmuomalalik, bozor-o'char qilish, yoshi kattalarga yoki ko'pchilikka salom berish, ovqatlanish, jamoat transportida keksalarga joy bo'shatish, o'zi yashab turgan mahalla, ko'chani obod qilishga hissa qo'shish, boshqalarga nafim tegsin deya ko'chat ekish ham ma'naviyat.

Bugun hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylanishga ulgurgan va bizni doim o'ziga rom qilib kelayotgan internetdan to'g'ri foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda har xil voqe'larga boshqalarga hurmat saqlagan holda fikr bildirish, o'zgarlar fikrini hurmat qilish, bo'lmag'ur yangiliklarni tarqatmaslik, aholini bunday narsalarga ishonmaslikka targ'ib qilish ham ma'naviyatli insonga xos xislat.

Kitob o'qish, yaqinlar va farzandlarda mutolaaga mehr uyg'otish, tanish-bilishlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, yaxshi kitob o'qiganda uni boshqalar bilan bo'lishish va shu orqali asarni o'qishga undash ham ma'naviyatga daxldor.

Hatto qanaqa qo'shiq tinglash, TV orqali qaysi kanalni ko'rish ham inson ma'naviyatining belgisi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Demak, turish-turmushimizning o'zi ma'naviyat. Ma'naviyatsiz kishi boshi berk ko'chaga kirib qolgan odam. Undan chiqishning chorasi bitta — orga qaytish. Ya'ni millatimizning azaliy qadriyatlariga yuz burishdir.

Nodir MAHMUDOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 546.
36390 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 21:40

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.